

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 330.3

“BAHOLASH ISHI VA INVESTITSİYALAR” KAFEDRASI

BADRIDDINOV SARVAR MUZAFFAR O'G'LI

**INVESTITSIYA LOYIHALARI BO'YICHA TENDERLARNI
TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH MASALALARI**

**Mutaxassislik: 5A230603 - “Investitsiyalarni boshqarish (bank sektori
bo'yicha)”**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

i.f.n., dots. Baymurotov Tursunboy Mahkambayevich

TOSHKENT-2017

**Dissertatsiya Toshkent moliya instituti “Baholash ishi va investitsiyalar”
kafedrasida bajarilgan**

Ilmiy rahbar

i.f.n., dots. Baymurotov Tursunboy Mahkamabayevich

Kafedra mudiri

i.f.n., dots. Zoyirov Laziz Subxonovich

Magistratura bo'limi boshlig'i

i.f.n., dots. Ortiqov Uyg'un Davlatovich

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARI BO'YICHA TENDER- LARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	10
1.1. Tenderning mohiyati, turlari va ahamiyati hamda investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarni tashkil etishning maqsadi va vazifalari.....	10
1.2. Investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarni tashkil etish va boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	17
1.3. Investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarni tashkil etish mexanizmi.....	24
I bob bo'yicha xulosa.....	33
II BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARI BO'YICHA TENDER- LARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI TAHLILI.....	34
2.1. Investitsiya loyihalari bo'yicha tender g'olibini aniqlashga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	34
2.2. Idoralararo tender komissiyasi tomonidan tenderlarni tashkil etish va boshqarish amaliyoti tahlili.....	45
2.3. Tender (tanlov) komissiyasi tomonidan tenderlarni tashkil etish va boshqarish amaliyoti tahlili	53
II bob bo'yicha xulosa.....	62
III BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARI BO'YICHA TENDER- LARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	63
3.1. Investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarni tashkil etish va boshqarishning xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash masalalari.....	63
3.2. Investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarni tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish yo'llari.....	72
III bob bo'yicha xulosa.....	84
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	85
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	89

KIRISH

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi. O'zbekistonda olib borilayotgan tarkibiy islohotlar makro iqtisodiy barqarorlikka erishish, jadal iqtisodiy o'sish va xalq farovonligini yuksaltirishning muhim shartlaridan biridir. Bu jarayonlarning samarali amalga oshirilishi Respublikamizni jahon iqtisodiy tizimi bilan integratsiyalashuviga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev milliy iqtisodiyotga 2016-yil 16,6 milliard AQSh dollari miqdorida yoki 2015-yilga nisbatan 9,6 foizga ko'p investitsiyalar yo'naltirilganligini hamda umumiy qiymati 5,2 milliard dollar bo'lgan 164 ta yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish yakunlanganligini¹ alohida qayd qilib o'tdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni asosida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish uchun 2017-2021-yillar davomida mineral-xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha umumiy qiymati qariyb 40 mlrd. AQSH dollarga teng bo'lgan 649 ta investitsiya loyihalari amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Natijada, keyingi 5 yil ichida sanoat mahsulot ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning YaIMdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizga oshadi.

2017-yilda umumiy qiymati 1,0 mlrd. AQSH dollarlik 145 ta ishlab chiqarish quvvatlarini foydalanishga topshirish, shu jumladan:

- meva-sabzavot va go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash sohasida 147 mln. AQSH dollarlik 63 ta loyiha;

- rangli va qimmatbaho metallarni chuqur qayta ishlash bo'yicha 217 mln. AQSH dollarlik 6 ta loyiha;

- kimyoviy xom ashyolarni chuqur qayta ishlash bo'yicha 25 mln. AQSH dollarlik 2 ta loyiha;

- uglevodorod xom ashyolarini qayta ishlashni chuqurlashtirish bo'yicha 342

¹Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.-T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017-y.,5-b.

mln. AQSH dollarlik 6 ta loyiha;

- tayyor charm-poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha 6 mln. AQSH dollarlik 9 ta loyiha;

- farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirishga yo'naltirilgan 24 mln. AQSH dollarlik 7 ta loyiha;

- qurilish materiallari ishlab chiqarishni yanada kengaytirish bo'yicha 151 mln. AQSH dollarlik 29 ta loyiha;

- tayyor to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish bo'yicha 178 mln. AQSH dollarlik 15 ta loyihalar amalga oshiriladi².

Yuqoridagi strategik maqsadlarga erishish uchun investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini samarali tashkil etish va boshqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishda, ularni ekspertizadan o'tkazish, risklilik darajasini baholash borasida boy tajribalar to'plandi. Biroq, resurslar bazasining zaifligi, mamlakatimizda bozor infratuzilmasi to'liq rivojlanmaganligi, huquqiy bazaning nisbatan mukammal emasligi, axborot ta'minoti bazasining takomillashtirishning zarurligi, amaliyotda ma'muriy aralashuv holatlari ham to'liq barham topib ulgurmaganligi va boshqa omillar sababli loyihalarni amalga oshirishda tender savdolarini o'tkazilishiga turli muammolar paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bu esa, investitsiyalash moyilligini so'ndiruvchi aks omil hisoblanadi.

Shu jihatdan ham O'zbekistonda investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishni samarali mexanizmini aniqlash, investitsiya loyihalarining moliyalashtirish manbalari va xom ashyo zahiralaridan oqilona foydalanish muhim vazifalardan hisoblanadiki, aynan tanlangan mavzuning dolzarbligini anglatadi.

Tadqiqot ob'yekti va predmeti: magistrlik dissertatsiya ishining ob'yekti investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarish,

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni 1-ilovasi.

investitsiya loyihalarini baholash, ularni o'ziga xos xususiyatlarini belgilash, loyiha samaradorligini aniqlash uchun tanlangan investitsiya loyihalari hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining predmeti investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishni tahlil etish hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari: magistrlik dissertatsiya ishining asosiy maqsadi investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarish muammolarini yechish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish bosqichlarining optimal yo'llari yuzasidan ilmiy asoslangan amaliy taklif-tavsiyalarni berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun dissertatsiya ishda quyidagi vazifalar belgilab olingan:

- investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdosi tushunchasining mazmun-mohiyati va loyihalarni amalga oshirishdagi ahamiyatini yoritish;
- investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishning nazariy asoslarini o'rganish;
- investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishni me'yoriy-huquqiy asosini o'rganish;
- investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarish mexanizmini o'rganish;
- investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishda tender komissiyalar samaradorligini tahlil etish;
- respublikamizda investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishdagi mavjud muammolarning mohiyatini ochib berish;
- investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish yuzasidan ilmiy asoslangan amaliy takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Ilmiy yangiligi: Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirishga qaratilgan hamda ilmiy jihatdan asoslangan nazariy qoidalar va

amaliy tavsiyalar majmui ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- iqtisodiy qo'llanmalar va adabiyotlarda investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etish hamda boshqarish mexanizmini o'rganish asosida tender savdolarini tashkil etish hamda boshqarishga doir mavjud nazariy qarashlar umumlashtirilgan;

- milliy iqtisodiyotga jalb etilgan investitsiyalar doirasida idoralararo va tender komissiyalari tomonidan tashkil etilgan tender savdolari tahlil qilingan;

- investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolari g'olibini aniqlashga ta'sir qiluvchi omillar o'rganilgan;

- investitsiya loyihalarini investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarish jarayonini o'rganish asosida tender savdolarini tashkil etish va boshqarishni yanada takomillashtirishga qonun, qaror va farmonlar tahlil qilingan;

- investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolari predmetidan kelib chiqqan holda, baholash mezonlari taklif etilgan;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolari komissiyalari faoliyatini baholashning ob'yektivligini oshirish maqsadida, ularning yagona elektron bazasini yaratish zarurligi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Respublikada investitsiya loyihalar doirasida tender savdolar mexanizmini takomillashtirish va ularning shaffofligini yanada oshirish orqali loyihalarni amalga oshirishda kutilgan samaraga erishish mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi: Investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarish faoliyatining turli jihatlarini qator chet ellik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etishning nazariy asoslari shakllantirilishida V.Sorokin, M.Burtseva, Y.Nikonova,

G.Suxadolskiy, I.Nedujiy, A.Zaxarov, M.Rozenberg³ kabi olimlarining hissasi katta.

Investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etishning xorijiy mamlaktlar tajribasini bir qator olimlar o'z ilmiy ishlarida yoritib berganlar. Bular sirasiga V .Gorenkov, I.Dyumulen, V.Knish, V.Lyashenko, D.Nikson, M.Rozenberg, J.Vilyame⁴ va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarish mexanizmini vujudga keltirish borasidagi islohotlar ilmiy hamda huquqiy asosda amalga oshirilmoqda. Investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etishga oid respublika olimlarining qator ishlanmalari mavjud. Masalan, B.Mamatov, D .Xujamqulov, E.Nosirov, A.Vaxobov, Sh.Xojibakiyev, N.Mo'minov, M.Isoqov, D.G'ozibekov, F.Maqsudov, I.Anorqulova, N.Qo'ziyeva, N.Jumayev, U.Burxanov, J.Atamuradov⁵ va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida kapital qurilish sohasida hamda tovar va xizmatlar sotib olishda tender savdolarini tashkil etishga doir muhim masalalar talqin etilgan.

Shuningdek, investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishning huquqiy asoslari quyidagi: O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 9-dekabrdagi "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni; O'zbekiston

³"Развитие системы международных тендеров в Российской Федерации" Диссертация на соискание ученой степени кандидат экономических наук Москва 2012 г., с. 291.; Бурцева М.В., Никонова Я.И. Развитие системы международных тендеров в Российской Федерации // Международный студенческий научный вестник. – 2015. – № 4-3.; Сухадольский Г Тендеры: вопросы и ответы. М.: Вершина, 2008; Недужий И.И. Международные торги. М.: Международные отношения, 1991.; Захаров А.Н. Международные конкурсные торги. М.: МГИМО-Университет, 2011; Розенберг М.Г Международная купля-продажа товаров. М., 2006

⁴ Гореньков В.Н. Система закупок ВВТ США М.: ИНКОРН РАН, 2005; Дюмулен И.И. Международная торговля. Тарифное и нетарифное регулирование. М.: ВАВТ, 2004.; Кныш В.А. Маркетинговая концепция управления государственными заказами. СПб.: Изд-во СПбГПУ, 2003.; Лященко В.П. Торговля оружием: организация, экономика, мировая конъюнктура и международные тендеры. М.: Воениздат, 2004.; Никсон Д. Как выиграть тендер, подготовив хорошее предложение. -М.: Нипро, 2004.; Розенберг М.Г Международная купля-продажа товаров. М., 2006.; Вильяме Л. Долгосрочный прогноз в краткосрочной торговле. М., 2001.

⁵Mamatov B.S., Xujamqulov D.Y., Nurbekov O.Sh. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2014-y. 608 b.; Uzoqov A., Nosirov E., Saidov R., Sultonov M. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD - MOLIYA", 2006-yil. 263 b.; Vaxobov A.V., Xojibakiyev Sh.X., Mo'minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Moliya, 2010-yil. 320 bet.; Isoqov M.Y. Kapital qurilish iqtisodiyoti. Ma'ruzalar matni. TDIU. 2004 yil. 220 bet.; G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. -T.: "Moliya" nashriyoti, 2003-y. 200 b.; Maqsudov F., Anorqulova I. O'zbekiston iqtisodiyoti uchun bevosita xorijiy investitsiyalar: ishlarning borishi va istiqbollari. //Bozor,pul va kredit. 5-son, 1997. 6-b.; Qo'ziyeva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirkoidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishni moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqt.fan dik. Ilm. dar. oli.uchun yoz.diss. avtor. T.:BMA. 2008-yil.; Burxonov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. T.-: "Fan va texnologiya", 2012-yil. 160 bet.

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 17-avgustdagi “Shahar yo’lovchilar transportida ochiq tenderlarni tashkil etish va ularni o’tkazish masalalari to’g’risida”gi, 2015-yil 14-sentyabrdagi “Tender savdolari o’tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-noyabrdagi “Tender savdolari o’tkazishni takomillashtirish takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagi “Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Qarorlarida o’z aksini topgan.

Tadqiqotda qo’llanilgan metodikaning tavsifi: kuzatish, abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil, statistik tahlil, so’rovnoma o’tkazish, eksperiment-tajriba sinov kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: dissertatsiya ishining natijalari, ilmiy taklif-amaliy tavsiyalaridan mamlakatimizda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarishning o’rni hamda rolini oshirish bo’yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertatsiya ishining amaliy ahamiyati ishda keltirilgan ilmiy taklif-amaliy tavsiyalardan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish hamda boshqarishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Ish tuzilmasining tavsifi: dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan tarkib topgan. dissertatsiya ishining hajmi 95 betdan iborat bo’lib, 17 ta jadval va 13 ta rasmni o’z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi va vazifalari, ob’yekti, predmeti, o’rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati asoslangan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Investitsiya loyihalarini bo’yicha tenderlarni tashkil etish va boshqarishning nazariy-huquqiy asoslari” deb nomlanib, unda

investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini nazariy-huquqiy asoslari o'rganilgan.

Ikkinchi bob "Investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarish amaliyoti tahlili" deb nomlangan. Mazkur bobda investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolari g'olibini aniqlashga ta'sir etuvchi omillar hamda Idorlararo va tender komissiyalari tomonidan o'tkazilgan tender savdolari amaliyoti tahlil qilingan.

Tadqiqotning uchinchi bobi esa, "Investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarni tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish masalalari" deb nomlangan. Unda investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarni tashkil etish va boshqarishning xorij tajribasi hamda uni O'zbekistonda qo'llash masalalari asoslab berilgan.

Ishning xulosa qismida tadqiqot natijalari umumlashtirilib, ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

I BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARI BO'YICHA TENDERLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Tenderning mohiyati, turlari va ahamiyati hamda investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarni tashkil etishning maqsadi va vazifalari

Jahon iqtisodiyoti amaliyoti tadqiqi shuni ko'rsatadiki, rivojlanish sari borayotgan har bir davlat o'z ichki investitsiyalarini va tashqi investitsiyalarni milliy iqtisodiyotning barcha sohalariga yo'naltirishga intiladi. Chunki investitsiyalarning butun iqtisodiyotni qamrab olishi bir paytning o'zida mamlakatda barcha tarmoq va sohalarning rivojlanishi va takomillashuviga omil boladi.

Dunyo tajribasi ko'rsatishicha, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish investitsiyalarni, xususan, turli sohalardagi investitsiya loyihalarini samarali amaliyotga tadbiq etish bilan uzviy bog'liqdir. Amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarining hajmi va miqdoriga qarab, iqtisodiy o'zgarishlar va siljishlar haqida xulosa chiqarish mumkin. Albatta, bu jarayonda investitsiya loyihalarining iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi va shu loyiha doirasida sotib olinayotgan tovar (ish va xizmat)larning baho va sifat ko'rsatkichlarining optimal variantini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda quyidagi muammolar kuzatildi:

- investitsiya loyihasi doirasida tovar (ish va xizmat)larni sotib olish xarajatlarni optimallashtirish;
- investitsiya loyihasi doirasida tovar (ish va xizmat)larni sotib olish jarayonida korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik;
- investitsiya loyihasi doirasida tovar (ish va xizmat)larni sotib olishda shaffoflik, oshkoralik, tenglik va ob'yektivlikni ta'minlash;
- investitsiya loyihasi doirasida arzon va sifatli tovar (ish va xizmat)larni sotib olinishini ta'minlash.

Investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarida yuqoridagi mavjud

muammolar bartaraf etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda amalga oshirililayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hukumat tomonidan tender savdolarining shaffofligi, oshkoraligi va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan qator qonunlar hujjatlari qabul qilinmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda davlat va xususiy sektor mablag'laridan foydalanishning samarali hisob va nazoratini tashkil etish, balki buyurtmachilarning shartnomaviy-huquqiy tartibga rioya etish darajasini oshirish, tender savdolari samarali boshqaruv tizimini shakllantirishdan iborat.

Tender savdolari - dunyo amaliyotida tovarlar (ishlar va xizmat)larni xarid etishning asosiy mexanizmi sifatida qaraladi. Tender savdolarini tashkil etishning tartib va shartlari umumiy qabul qilingan xalqaro me'yor va qoidalar bilan tartibga solinib turiladi. Ushbu qoidalar yirik xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar, donorlik agentliklari tomonidan investitsiya loyihasi bo'yicha xarid qilinayotgan tovar (ish va xizmat)lar jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, tenderlar orqali tovar (ish va xizmat)larni xarid qilish usullari har bir mamlakatning milliy qonunchilik me'yorlari va boshqa xujjatlar bilan belgilab beriladi.

Zamonaviy tender ko'rinishi dastlab 1946-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida ixtiro qilingan. Bundan ko'zlangan maqsad o'sha davrdagi AQSh korporatsiyalarining ish va xizmatlarni bajarish jarayonida vujudga keluvchi karrupsion xarakatlariga barham berish edi. Shundan so'ng, 1950-yildan boshlab dunyo mamlakatlarida tenderlar tovarlar (ishlar va xizmat)lar harid qilishning asosiy intrumenti sifatida ommalashdi.

“Tender” tushunchasiga hozirgi kunda iqtisodiy adabiyotlarda turlicha ta'rif berilgan bo'lib, ular ma'zmunan arzon va sifatli tovar (ish va xizmat)larni ikki bosqichli saralash orqali tanlab olish shaklidir.

O'zbekiston Respublikasining Milliy Ensiklopediyasida “tender” tushunchasiga quyidagicha: “Tender (ing. *tend* - xizmat ko'rsatish) – ochiq turdagi yoki cheklangan sondagi ishtirokchilar uchun yopiq turdagi raqobatli savdo-sotiq;

buyurtmani joylashtirishning tanlov shakli; qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish, muddatli shartnomalar bo'yicha tovarlar yetkazib berish, shartnomalar tuzish to'g'risidagi ariza, yozma takliflar; xalqaro bozorda mashina-uskunalar xarid qilish, qurilishmantaj ishlarini bajarish, injiring xizmatlari ko'rsatish uchun tanlov asosida buyurtmalar berish.⁶” ta’rif berilgan

Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. “Современный экономический словарь” lug’atida esa, “Tender - bu ochiq (ishtirokchilar soni cheklanmagan) yoki yopiq (ishtirokchilar soni cheklangan) turdagi raqobatga asoslangan, tanlov asosida buyurtmalarni joylashtirishdir.⁷” deya ta’riflangan.

Сорокин В. Ю. “Развитие системы международных тендеров в Российской Федерации” asarida quyidagi fikrni keltiradi: “Tender - investitsiya loyihasi doirasida tovar (ish va xizmat)larni oldindan berilgan shartlar asosida eng optimal bajaruvchisini tanlab olishdir.⁸”

Bizning fikrimizcha, tender savdosi bu investitsiya loyihasini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun baho va sifat jihatdan optimal tenderni tanlab olishdir.

Tender (o'zbek tili nashrlarida tanlov ham deb yuritiladi) savdolarining bir nechta turlari mavjud. Buni 1.1-jadval ma'lumotlari asosida ko'rishimiz mumkin.

Investitsiya loyihasi bo'yicha tovarlar yetkazib berish uchun tender savdolari - davlat va xususiy sektor uchun sanoat va boshqa tovar mahsulotlarini xarid etishda ishlatiladi. Savdoning predmeti bo'lib, asbob-uskunalar ishlab chiqish, tayyorlash, yetkazib berish, montaj uni ishga tushirish, shuningdek, yetkazib berilgan tovarlarni keyingi ekspluatatsiyasi bilab bog'liq qo'shimcha vazifalar, masalan texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash personalni o'qitish va sotuvdan keyingi xarajatlar hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, investitsiya loyihalari bo'yicha tovarlar yetkazib berish bo'yicha tender savdosi ishtirokchilari buyurtmachi va mol yetkazib beruvchilardan iborat bo'ladi.

⁶O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “Т” harfi “O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent. 2013-y. 288-289-bet.

⁷Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. “Современный экономический словарь” М: ИНФРА-М. 2006 с 351.

⁸Сорокин В. Ю. “Развитие системы международных тендеров в Российской Федерации” Диссертация на соискание ученой степени кандидат экономических наук Москва 2012 с 291.

Investitsiya loyihasi bo'yicha tender savdolarining turlari⁹

1	Tender savdolari ishtirokchilariga ko'ra	Ochiq tender	Mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha yuridik shaxslar qatnashishi mumkin.
		Yopiq tender	Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda, buyurtmachi oldindan belgilab qo'ygan tashkilotlar ishtirokida o'tkaziladi.
2	Tender savdolarida ishtirok etishga ruhsat berishiga ko'ra	Malakaviy tanlov asosida tender	Tender ishtirokchisini malakasini oldindan aniqlash ma'lum shart asosida aniqlash orqali amalga oshiriladiga savdolar
		Malakaviy tanlovsiz tender	Mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, barcha yuridik shaxslar malaka tanlovlarisiz qatnashishi mumkin bo'lgan savdolar.
3	Tender savdolarining geografik belgilariga ko'ra	Xalqaro tender	Xalqaro miqyosidagi tovar, ish va xizmatlarni xarid qilish uchun
		Milliy tender	Respublika miqyosidagi tovar, ish va xizmatlarni xarid qilish uchun
		Mahalliy tender	Mahalliy loyihalarni amalga oshirish uchun
4	Tender savdolari predmetiga ko'ra	Tovarlar yetkazib berish uchun tender	Davlat va xususiy sektor uchun sanoat va boshqa tovar mahsulotlarini xarid etish uchun savdolar
		Bajariladigan ishlar uchun tender	Qurilish va qurilish-montaj ishlarini bajarish maqsadida pudratchilarni yollash uchun savdolar
		Xizmat ko'rsatish uchun tender	Texnik-iqtisodiy, ekologik va turli ekspertiza, loyiha ishlari, qurilish loyihalari, ishlarni sifatini nazorat qilish, ma'lum tadqiqotlarni amalga oshirish uchun savdolar.

Investitsiya loyihasi bo'yicha bajariladigan ishlar uchun tender savdolari - pudrat savdolari sifatida ma'lum bo'lib, qurilish va qurilish-montaj ishlarini bajarishda pudratchilarni yollash hamda kerakli xizmatlarni bajarish, masalan, kafolat muddati davomida ob'yektni ta'mirlab borish, personalni ekspluatatsiya xizmatlariga o'qitish va boshqalardan iborat. Savdo ishtirokchilari - buyurtmachi va pudratchilardan iborat.

Investitsiya loyihasi bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun tender savdolari - texnik-iqtisodiy, ekologik va turli ekspertiza, loyiha ishlari, qurilish loyihalari, ishlarni sifatini nazorat qilish, ma'lum tadqiqotlarni amalga oshirish kabilar uchun injener, yuridik, moliya-iqtisodiy va boshqa xizmatlarga yo'naltirilgan bo'ladi.

Investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)larni xarid qilish uchun yo'naltiriladigan marrkazlashgan: davlat budjeti, davlat budjetida jamlanadigan

⁹ Burxonov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. T.: "Fan va texnologiya" 2012-yil, 85-bet

budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar mablag'lari, hukumat kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar va xorijiy grantlardan hamda markazlashmagan: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va korxonalar mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish, xarid qilinadigan tovar, ish va xizmatlar sifatini oshirish tender savdolari o'tkazishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tender savdosi natijasida investitsiya loyihalari bo'yicha bajariladigan yoki sotib olinadigan tovar (ish va xizmat)larni past baholarda va optimal sifat ko'rsatkichlari asosida sotib olishdan iborat. Bundan ko'rinib turibdiki, tender savdolarida g'oliblikni aniqlovchi asosiy omil - nomzod taqdim etgan taklifda sifat va baho ko'rsatkichning nisbati hisoblanadi. Ammo, ushbu ko'rsatkichning nisbati savdo predmetidan (tovarlar yoki xizmatlar) va ayrim olingan savdolarini o'tkazishda ishlatiladigan tender hujjatlari yo'riqnomalaridan kelib chiqib, turlicha bo'lishi mumkin.

Investitsiya loyihasi bo'yicha bajariladigan ishlar uchun tender savdolari tovarlarning miqdoriy -sifat ko'rsatkichlarida ifodalashning sodda tipi hisoblanadi. Tovarlarni sotib olish yuzasidan tuzilgan tender hujjatlari "Texnik ko'rsatkichlar" deb ataladi. Unda sotib olinishi mo'ljallanayotgan tovarga talab ko'rsatkichlari, uning to'liq tavsifnomasi, sifat parametrlari ko'rsatilgan bo'ladi. Talabgor uchun yo'riqnomada tovarni yetkazib berish usullari va u bilan bog'liq zaruriy xizmatlar bo'yicha talablar to'liq ko'rsatilgan bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, bir turdagi tovarlar xaridi qanday bo'lish zarurligini o'zida to'liq aks ettiradi va unda o'zgaruvchan hamda noma'lum o'lchovlardan imkon qadar foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur holat, bir qarashda, sifat omiliga alohida e'tibor qaratish zarurat yo'qdek ko'ringani bois, unda baho omili birlamchi degan xulosa kelib chiqadi va bu, ko'pchilik hollarda, qaysidir tender hujjatlarida o'z aksini ham topadi.

Investitsiya loyihasi bo'yicha bajariladigan ishlar uchun tender savdolarida pudrat ishlari kompleks tusga ega ekanligi, qator ma'lum bo'lmagan va o'zgaruvchan o'lchamlarning mavjudligi sababli batafsil ifodalash ancha murakkab kechadi. Pudrat savdolari bo'yicha tender hujjatlari katta hajmli bo'lib bir nechta

bo'limdan tashkil topadi. Ushbu hujjat to'plami - tenderda ishtirok etuvchi talabgorlar uchun yo'riqnoma, loyiha yechimi(chizmasi), ishlar bajarilishining texnik shartlari, smeta va boshqa hujjatlardan iborat bo'ladi. Savdolarga tayyorgarlik paytida bunday katta hajmdagi hujjatlarni tayyorlash birmuncha hajmdagi mehnat, qimmat turuvchi va vaqt talab etuvchi jarayon hisoblanadi. Shunga qaramay, baholashga asoslangan tanlovni amalga oshirishga imkon beradigan savdolarni tashkil etish maqsadida buyurtmachilar bajarilishi talab etadigan ishlarni batafsil ifodalashga ma'lum mablag' sarflaydilar.

Investitsiya loyihasi bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun tender savdolarida injenerlik-maslahat xizmatlarni aniq ifodalash qiyin kechadigan savdo predmeti hisoblanadi. Tashkiliy va boshqaruv bo'yicha maslahatchilar, loyihachilar, iqtisodchilar, yuristlar, injenerlar xizmatlarini, bosqichlarga ajratish va talabgor taklifini baholashda qo'llash mumkin bo'lgan aynan bir xil qiymatli tushunchalar asosida ifodalash murakkab hisoblanadi. Shunday bo'lsada, savdoning aynan shu turida "baho-sifat" ko'rsatkichi yo'riqnomalarda aniq ko'rsatib berilgan. Bu jarayonda maslahatchilarni tanlashning asosiy omili bu sifat ko'rsatkichidir. Baho, odatda, kichik nisbatga ega bo'lib, ayrim hollarda unga umuman e'tibor qaratilmaydi.

Investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarni tashkil etishning asosiy tamoyillari oshkoralik, ob'yektivlik, tender qatnashchilariga teng shart-sharoit yaratish, shu bilan birga, mahalliy korxonalarga ustuvorlik berishlar hisoblanadi. Tender savdolarini tashkil etishning asosiy tamoyillariga (1.1-rasm) qat'iy amal qilish muhim hisoblanadi.

Demak, iqtisodiyotda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tenderlarni muvaffaqiyatli tashkil etish yuqori texnik saviyadagi tayyor mahsulotlar ulushini oshirish imkoniyatini beradi. Bu jarayonda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- xorijiy korxonalar bilan mamlakatimizdagi eksport qiluvchi korxonalar o'rtasida kooperatsiya aloqalari shakllanishiga ko'maklashish;
- yuqori texnologiya va ilmtalab qiluvchi mahsulotlar ishlab chiqarish


sohasini rivojlantirish;

- eksportning intellektual mulk ob'yektlari litsenziyalarini hamda "nou-xau" shaklida texnik-tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing sohalarida xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirish yo'li bilan respublikamizda erishilgan ilmiy-texnologik yutuqlarning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuvini tezlashtirish;

- ilmiy ishlanmalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy ishlanmalarga talab va taklifga asoslangan bozorga yonaltirilgan shart-sharoit yaratuvchi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish;

- innovatsiya jarayonini davlat tomonidan va tijorat usulida qo'llab-quvvatlashning eng maqbul uyg'unlashuvining asosiy yo'llarini belgilab olish hamda ilmiy-texnik ishlanmalar savdosining tijorat ahamiyatiga molik natijalar darajasigacha yetkazish;

- o'zbek olimlari va mutaxassislarining chet eldagi yetakchi ta'lim muassasalari, tashkilotlar hamda firmalar bilan hamkorligini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish va boshqalar.



1.1-rasm. Investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarni tashkil etishning asosiy tamoyillari¹⁰

Albatta, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari doirasidan mablag'lardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish va ulargan oqilona foydalanish, loyihalar amalga oshirilishni jadallashtirish, shuningdek, tovarlar yetkazib beruvchilarni, ish va

¹⁰ Burxonov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. T.-: "Fan va texnologiya" 2012-yil, 58-bet.

xizmatlarni amalga oshiruvchilarni tanlab olish bo'yicha tender savdolarini tashkil etishdagi asosiy vazifalar quyidagilar:

- tovar (ish va xizmat)lar xarid qilishga yo'naltirilgan mablag'lardan samarali va oqilona foydalanish;
- xarid qilingan tovarlar, ish va xizmatlar sifatini yanada oshirish;
- tender (tanlov) savdolarini o'z vaqtida va sifatli o'tkazish;
- tovar (ish va xizmat)larni baho va sifatiga ko'ra tanlab olish;
- tender savdolarini oshkoralik, tenglik, ob'yektivlik, ustuvorlik (milliy korxonalarga) tamoyillariga mos holda tashkil etish va shu kabilar.

1.2. Investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarni tashkil etish va boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari

Investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarish jarayoni umumiy qabul qilingan xalqaro me'yor va qoidalar hamda mamlakatning milliy qonunchiligi bilan tartibga solinib turiladi. Ushbu qoidalar yirik xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar, donorlik agentliklari tomonidan investitsiya loyihasi bo'yicha xarid qilinayotgan tovar (ish va xizmat)lar jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, tenderlar orqali tovar (ish va xizmat)larni xarid qilish usullari har bir mamlakatning milliy qonunchiligi, soha me'yorlari va boshqa majburiy hamda tavsiya etilgan hujjatlar bilan belgilab berilgan.

Mamlaktimizda, xorijiy kreditlar va grantlardan yanada samarali foydalanish, milliy va chet ellik mahsulot yetkazib beruvchilar o'rtasidagi sog'lom raqobatni rivojlantirish, mahsulot yetkazib berishga kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarini keng jalb qilish, iqtisodiyotning tarmoqlarida va ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari doirasida mablag'lardan oqilona foydalanish hamda ularni amalga oshirish tartibotlarini jadallashtirish maqsadida, tender savdolarini tashkil etish va boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, ular yildan-yilga takomillashtirilib borilmoqda.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va

boshqarishning me'yoriy-huquqiy asoslari quyidagilardan iborat:

I. O'zbekiston Respublikasining Qonunlari:

- 2014-yil 10-dekabrda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi;
- 1998-yil 30-aprelda "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi;
- 1998-yil 30-aprelda "Chet el investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va Qarorlari:

- 2003-yil 6-mayda "Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi;
- 2005-yil 11-aprelda "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevralda PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi;
- 2008-yil 24-iyulda "Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o'zlashtirish jaryonini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.


III. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining Qarorlari:

- 1998-yil 17-avgustda "Shahar yo'lovchilar transportida ochiq tenderlarni tashkil etish va ularni o'tkazish masalalari to'g'risida"gi;
- 2000-yil 20-noyabrda "Tender savdolari o'tkazishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi;
- 2003-yil 3-iyulda "Kapital qurilishda tanlov savdolar tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi;
- 2003-yil 11-iyunda "Markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobiga ro'yobga chiqarilayotgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o'tish to'g'risida"gi;
- 2007-yil 7-iyunda "Investitsiya loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash tartibi haqida"gi 110-sonli Qarori;

- 2015-yil 14-sentyabrdagi “Tender savdolari o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

Har bir mamlakat investitsiya loyihalarini bo‘yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishning huquqiy asosini yaratadi. Bu asos davlat qonunchiligi hamda mamlakatning tegishli mutassaddi davlat organlari tomonidan chiqarilgan me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan (1.2-rasm).

O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 17-avgustdagi “Shahar yo‘lovchilar transportida ochiq tenderlarni tashkil etish va ularni o‘tkazish masalalari to‘g‘risida”gi Qarori asosida “Shaharda yo‘lovchilar tashish yo‘nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tender tashkil etishga oid” Nizom ishlab chiqildi. Nizom mamlaktimizda investitsiya loyihalari doirasida xizmatlar



1.2-rasm. Tender savdolarini tashkil etish va boshqarishni tartibga solishning huquqiy asoslari¹¹

ko‘rsatish uchun tender savdolarini tashkil etishni tartibga soluvchi muhim asos hisoblanadi. Undan ko‘zlangan maqsad aholiga xizmat ko‘rsatish madaniyati va sifatini yaxshilash, transportda bozor munosabati muhitini yaratish, umumiy foydalanishdagi avtotransport, rivojlanayotgan xususiy sektor hamda mulkchilik shaklidan qat’i nazar, boshqa tashuvchilarning o‘zaro harakatini tartibga solish hisoblanadi.

¹¹ Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Shunga ko'ra "Shaharda yo'lovchilar tashish yo'nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tender tashkil etishga oid" Nizom ishlab chiqildi. Nizom quyidagi qismlardan iborat:

- umumiy qoidalar;
- tender o'tkazishning asosiy prinsiplari va vazifalari;
- ochiq tenderlarni tashkil etish;
- tender takliflarining mazmuni;
- tender takliflarini baholash va g'olibni aniqlash.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-noyabrdagi "Tender savdolari o'tkazishni takomillashtirish takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori asosida "Xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo'yicha tender savdolari o'tkazish to'g'risida" Nizom ham ishlab chiqildi.

Mazkur Nizom asosida O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumatining qarorlariga muvofiq tashkil etilgan budjetdan tashqari jamg'armalar hamda donor mamlakatlar, xalqaro, xorijiy hukumat va nodavlat tashkilotlar bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Hukumati tomonidan tuzilgan shartnomalar doirasida beriladigan xorijiy grant mablag'lari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida beriladigan xorijiy kreditlar hisobiga moliyalashtiriladigan va bir kontrakt bo'yicha qiymati 100 ming AQSH dollariga teng miqdordan ortiq bo'lgan import qilinadigan va mamlakatimizda ishlab chiqarilgan xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar tender asosida xarid qilinadi. Agar xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq xarid qilinayotgan bo'lsa, yoki donor mamlakatlarning, tegishli xalqaro, xorijiy hukumat va nodavlat tashkilotlarning tartibotlarida yoki O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar berish va xorijiy grantlar berish shartlarida o'zgacha hol belgilangan hollarda tenderlar o'tkazilmaydi.

"Xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid

qilish bo'yicha tender savdolari o'tkazish to'g'risida" Nizom quyidagi qismlardan iborat:

- umumiy qoidalar;
- tenderlarni tashkil etish;
- tenderlarning turlari;
- tenderni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari;
- tender to'g'risidagi e'lonlarni tayyorlash va chop etish;
- tender hujjatlariga qo'yiladigan asosiy shartlar;
- tender qatnashchilari;
- tenderda qatnashish uchun da'vogarlarni tanlab olish;
- tender o'tkazish tartibi;
- tender takliflarini baholash tartibi;
- mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchi (ish bajaruvchi va xizmat ko'rsatuvchi)lari uchun narx imtiyozlari bergan holda tender savdolari o'tkazishda tender takliflarini baholash xususiyatlari;
- tender natijalari bo'yicha tuzilgan kontraktlar bajarilishi kafolati, ro'yxatga olinishi va ijrosi monitoringi;
- yakunlovchi qoidalar.

O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagi "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori asosida, "O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida" Nizom ishlab chiqildi. Bu Nizom asosida markazlashtirilgan manbalar, davlat boshqaruv organlari va davlat korxonalari mablag'lari, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan qiymati qiymati 300 dan 100 ming AQSH dollarigacha teng summadagi bir kontrakt bo'yicha kapital qurilish bilan bog'liq tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridi faqat tanlov savdolari natijalari bo'yicha amalga oshiriladi.

"O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida" Nizom quyidagi qismlardan iborat:

- umumiy qoidalar;
- tanlov savdolari qatnashchilari;
- tanlov savdolari shakllari;
- talabgorga qo'yiladigan malaka talablari;
- tanlov savdolarini o'tkazishga tayyorgarlik;
- tanlov hujjatlarining tarkibi, tuzilishi, ularni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi;
- ofertalarni taqdim etish;
- tanlov savdolarini o'tkazish va ularni yakunlash;
- tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish hamda tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish tartibi monitoringi;
- narxlarga tuzatishlar kiritish va sug'urta;
- tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish xarajatlari;
- tanlov savdolari qatnashchilarining javobgarligi;
- yakunlovchi qoida.

“O‘zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to‘g‘risida” Nizom o‘z ichiga kapital qurilish - yangi qurilish, korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish va texnika bilan qayta jihozlash, ob’ektlar va asosiy vositalarni mukammal ta’mirlesh, talabgor - ofertasi savdo tashkilotchisi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgunga qadar taklif etilgan shartlarda tanlov savdolarida qatnashish niyatini bildirgan yuridik yoki jismoniy shaxs, tanlov buyurtmanomasi aksepti - uning yutgan ofertasi e’tirof etilgan holda oferentga yuboriladigan va shartnoma tuzishga taklif hisoblanadigan buyurtmachining yozma bildirishnomasi, tanlov komissiyasi - buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ kabi tushunchalarni oladi (1.2-jadval).

O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 14-sentyabrdagi “Tender savdolari o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida “Iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida va

ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari doirasida tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilish bo'yicha idoralararo tender komissiyasi to'g'risida" Nizom ishlab chiqildi. Bu Nizom asosida idoralararo tender komissiyasi 1 kontrakt bo'yicha 5,0 mln AQSH dollaridan ko'p summaga tovar(ish va xizmat)larni xarid qilish yuzasidan tender natijalari bo'yicha g'oliblarni aniqlaydi.

1.2-jadval.

O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari o'tkazishda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar izohi¹²

Asosiy tushunchalar	Ma'zmoni
Buyurtmachi	Investor yoki tovarlar, ishlar va xizmatlar xaridini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda investor tomonidan belgilangan yuridik shaxs
Talabgor	Ofertasi savdo tashkilotchisi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgunga qadar taklif etilgan shartlarda tanlov savdolarida qatnashish niyatini bildirgan yuridik yoki jismoniy shaxs
Tanlov savdolari	Tanlov hujjatlarida nazarda tutilgan mezonlar va shartlarga muvofiq tovarning maqbul yetkazib beruvchisini, ishlarni bajaruvchini va xizmatlar ko'rsatuvchini tanlash usuli
Tanlov savdolari predmeti	Tovarlar, ishlar va xizmatlar
Tanlov komissiyasi	Buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ
Tanlov buyurtmanomasi aksepti	Uning yutgan ofertasi e'tirof etilgan holda oferentga yuboriladigan va shartnoma tuzishga taklif hisoblanadigan buyurtmachining yozma bildirishnomasi
Oferent	Malaka tanlovidan o'tgan va ofertasi tanlov savdolari tashkilotchisi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan talabgor
Baholovchi komissiya	Erkin savdoda xaridni amalga oshirishda buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan doimiy yoki vaqtinchalik organ
Baholash mezonlari	Talabgorlarni tanlash hamda ofertani baholash va savdolar g'olibini aniqlash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar
Baholovchi guruh	Buyurtmachi tomonidan yoki uning buyurtmasi bo'yicha jalb etilgan tashkilot tomonidan aniqlanadigan tanlov savdolari predmetining hisoblab chiqilgan qiymati
Boshlang'ich narx	Buyurtmachi tomonidan yoki uning buyurtmasi bo'yicha jalb etilgan tashkilot tomonidan aniqlanadigan tanlov savdolari predmetining hisoblab chiqilgan qiymati
Shartnomaviy joriy narx	Tanlov savdolari natijalari bo'yicha belgilanadigan tanlov savdolari predmeti narxi
Qurilish-pudrat tashkilotlari reestri	Qurilish-pudrat tashkilotlarining ixtisoslashuvga, tashkiliy tuzilmaga va bajariladigan qurilish-montaj ishlari xususiyatiga muvofiq doimiy ishlaydigan qurilish-ishlab chiqarish xodimlari bilan butlanganligi, ularda ishlab chiqarish fondlari mavjudligi hisobga olingan holda yangilanadigan yagona elektron ma'lumotlar bazasi

¹² O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagi "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori

“Iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari doirasida tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilish bo'yicha idoralararo tender komissiyasi to'g'risida” Nizom quyidagi qismlardan iborat:

- umumiy qoidalar;
- idoralararo tender komissiyasining vazifalari va funksiyalari;
- idoralararo tender komissiyasining ishchi organi;
- idoralararo tender komissiyasining ish reglamenti;
- idoralararo tender komissiyasining javobgarligi.

Kelajakda investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarishning huquqiy asoslarini yanda takomillashtirib borish, tender savdolarini tashkil etishni ochiqligi, ob'yektivligi va shaffofligini ta'minlash uchun zamin bo'ladi.

1.3. Investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarni tashkil etish mexanizmi

Investitsiya loyihalari doirasida xarid qilinadigan tovar (ish va xizmat)larni xarid qilish uchun tender savdolarini tashkil etish va o'tkazish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- tenderning sohasini belgilash;
- tender hujjatlarini (ixtisoslashgan konsultantlarni jalb etgan holda) tayyorlash;
- tenderni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish yoki tenderda qatnashish uchun taklifnomalar jo'natish;
- tender qatnashchilaridan tender bo'yicha takliflarni qabul qilish;
- tenderda qatnashishi mumkin bo'lganlarni aniqlash;
- tender bo'yicha takliflarni baholash va tender g'olibini aniqlash;
- tender g'olibi bilan kontraktni imzolash.

Bugungi kunda mamlakatimizda investitsiya loyihalari doirasida xorijiy kreditva grantlar mablag'laridan yanada samarali foydalanish, mahalliy va chet

ellik mahsulot yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish, mahsulot yetkazib berishga kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarini keng jalb qilish maqsadida tender savdolari Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 15-sentabrdagi 264-sonli qarori muvofiq: iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoiy sohada 1 kontrakt bo'yicha 5 mln AQSH dollaridan ortiq summaga tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish yuzasidan tender (tanlov) savdolar idoralararo tender komissiyasi tomonidan, 1 kontrakt bo'yicha 5 mln AQSH dollaridan kam summadagi 1 kontrakt bo'yicha tender savdolarini o'tkazish qonun hujjatlariga muvofiq buyurtmachilar tomonidan tuzilgan tender (tanlov) komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Idoralararo va tender komissiyasining ishchi organi tender savdolari o'tkazilishidan kamida 30 kun oldin tender to'g'risidagi e'lonlarni O'zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasining (O'zRTXB) maxsus axborot portalida joylashtiradi va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish (mamlakatimizda va chet ellarda chop etiladigan va ixtisoslashgan jurnal, gazetalarni tanlash majburiy hisoblanadi) va mamlakatimizdagi ishlab chiqaruvchilarni, shu jumladan, kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarini albatta jalb etgan holda pochta, telefaks orqali yoki boshqacha shaklda aniq da'vogarlariga rasmiy taklifnomalar yuborish yo'li bilan tashkil etiladi. Yopiq tenderlar o'tkazilganda tender to'g'risidagi e'lon ommaviy axborot vositalarida berilmaydi.

Tenderlar to'g'risidagi axborotda ishchi organning nomi, tenderning mavzusi, tovarni yetkazib berish shartlari va mo'ljallangan yetkazib berishni bajarish muddatlari, sotib olinadigan tovarning eng yuqori narxi, tenderda qatnashish uchun da'voglarni oldindan malakali tanlash muddatlari, tender hujjatlarini olishi mumkin bo'lgan tender komissiyasi ishchi organining manzili, bog'lanish telefoni va telefaksi, tender hujjatlarining narxi, tender bo'yicha taklif berish vaqtida tender qatnashchisi uchun zakalat summasi, tender komissiyasi tomonidan takliflarni qabul qilib olishning (kun va soat ko'rsatilgan holdagi) so'nggi muddati, mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (ishlarni bajaruvchilar, xizmatlar ko'rsatuvchilar) uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan narx

imtiyozlari, mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari (yetkazib beruvchilari)ning, shu jumladan, kichik biznes korxonalarining tenderda qatnashishi mumkinligiga doir ko'rsatmalar bo'ladi.

Tender (tanlov) savdolarining hujjatlari 4 qismdan iborat bo'ladi:

- tender qatnashchisi uchun yo'riqnoma;
- tenderning texnik qismi;
- tenderning tijorat qismi;
- kontraktning rasmiy shakli.

Investitsiya loyihalari doirasida tender (tanlov) savdolarining hujjatlariga ma'lum bir shartlar qo'yilgan bo'lib ular to'g'risida ma'lumotlar (1.3-jadval)da ko'rsatib o'tiladi. Mazkur hujjatlardagi shartlarni bajarilishi tender komissiyalari tomonidan qat'iy o'rganiladi.

Tenderlarda qatnashish uchun qo'yiladigan shartlarni bajargan, ular asosida xarid qilinadigan mahsulotning tegishli hajmini ta'minlab berishga ega bo'lgan ham xorijiy firma va tashkilotlar hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilari (tovar yetkazib beruvchilari) qatnashishlari mumkin. E'lon bosib chiqarilgandan so'ng tenderda qatnashishni xohlovchi da'vogarlar tender hujjatlarini pul to'lovi asosida oladi.

Shundan so'ng tenderga qadar unda ishtirok etish uchun qo'yiladigan da'voglarning tender komissiyasi tomonidan malaka tanlovi quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- qayta tashkil etish, tugatilish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan;
- malakali tanlov uchun barcha zarur hujjatlarni belgilangan muddatda taqdim etmagan;
- ilgari tuzilgan kontraktlar bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni zarur darajada bajarmagan;
- tender e'lon qilingunga qadar ta'sis etilganiga 6 oy bo'lmagan;
- buyurtmachi bilan sud yoki hakamlik muhokamasida ishi ko'rib chiqilayotgan;
- tijorat va moliya ko'rsatkichlari bo'yicha tender komissiyasining

talablariga javob bermaydigan tashkilotlar va firmalarning tenderlarda ishtirok etishlariga yo‘l qo‘yilmaydi.

1.3-jadval.

Tender hujjatlariga qo‘yiladigan asosiy shartlar¹³

Tender qatnashchisi uchun yo‘riqnoma	- tenderlar qachon o‘tkazilishi to‘g‘risida ma’lumot olish yuzasidan tender komissiyasining ishchi organi vakili bilan bog‘lanish uchun manzil va bog‘lanish telefonlari; - tender komissiyasiga yuborilayotgan tender takliflarining nusxalari soni to‘g‘risida ko‘rsatma; - tender taklifini rasmiylashtirish tartibi va uni vizalashga nisbatan qo‘yiladigan talab; - tender taklifi uning qatnashchisi tomonidan tender komissiyasiga taqdim etilgandan so‘ng unga o‘zgartirishlar kiritish va uni rasmiylashtirish tartibi; - narxlar belgilash va valyutaga oid ko‘rsatma; - tender komissiyasiga takliflar berish tartibotiga nisbatan talab; - tender qatnashchisining kelishib olingan vaqt mobaynida o‘z taklifidan qaytmasligini kafolatlovchi zakalat pulining miqdori, uni to‘lash va qaytarib olish tartibi; - tender qatnashchilari tomonidan tender hujjatlari talablariga asoslangan takliflar bilan bir qatorda muqobil takliflar berish mumkinligi to‘g‘risida axborot; - tender qatnashchisining iltimosi asosli bo‘lganda tenderlarning yopilishi sanasini boshqa kunga ko‘chirish mumkinligiga oid ko‘rsatma; - har qanday hujjatning va o‘tkazilgan tenderlar doirasida tuziladigan hujjatlarning maxfiyligi ta’minlanishi; - takliflar solingan konvertlarni ochish tartiboti bayoni va tender komissiyasi tomonidan tender g‘olibini aniqlash muddati.
Tenderning texnik qismi	- tenderning texnik qismida xarid qilinadigan tovarga nisbatan zarur texnologiya talablari.
Tenderning tijorat qismi	- tovar narxi va uni belgilash tartibi (tender savdolarida qatnashish uchun xorijiy tovar yetkazib beruvchilar jalb qilingan hollarda xarid qilinadigan tovarlarni tashib keltirishning qiymati alohida ajratib ko‘rsatiladi); - yetkazib berish shartlari; - to‘lov sharti va to‘lovlar jadvali; - bitishuvlarni mablag‘ bilan ta’minlash manbalari.
Kontraktning rasmiy shakli	- kontraktning xalqaro savdo huquqining umumiy qabul qilingan me’yorlariga muvofiqligi; - kontraktning O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va normativ hujjatlariga muvofiqligi.

Ommaviy axborot vositalarida tender o‘tkazish to‘g‘risidagi e’lon bosib chiqarilgan sana yoki tender qatnashchisi pochta (sana pochta shtempeli bo‘yicha aniqlanadi), telefaks bo‘yicha yoki boshqa shaklda xabar qilingan (taklif etilgan)

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 21-noyabrdagi “Tender savdolarini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 456-sonli Qarori.

sana tender ochilgan sana hisoblanadi. Tender komissiyasi tushgan takliflarning tender shartlariga muvofiqligini tekshiradi va tender shartlarida belgilangan, eng yuqori raqobat narxlari, yetkazib berish shartlari, to'lov va boshqa mezonlar bo'yicha g'oliblarni aniqlaydi.

Idoralararo tender komissiyasi iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari doirasida tender (tanlov) savdolarini o'tkazish bo'yicha doimiy kollegial organ hisoblanadi. U O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari, shuningdek ustav jamg'armasidagi davlat ulushi 50 foizdan ortiq bo'lgan tashkilotlarning o'z mablag'lari; davlatning tashqi qarzlar, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq xorijiy grantlar va texnikaviy ko'maklashish mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)larini xarid qilish yuzasidan tender (tanlov) savdolarini tashkil etadi.

Idoralararo tender komissiyasi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)lar xarid qilish uchun mablag'lardan samarali va oqilona foydalanilishini ta'minlash;

- xarid qilinadigan tovar (ish va xizmat)lar sifatini oshirish;

- tender (tanlov) savdolarini o'z vaqtida va sifatli o'tkazish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish;

- Idoralararo tender komissiyasi yuqoridagi vazifalardan kelib chiqib quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- ishchi organlarning (buyurtmachi tashkilot vazirlik yoki idora tender (tanlov) savdolarini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha ishchi organ tuzadi) tarkiblarini tasdiqlaydi;

- tender (tanlov) hujjatlarini ishlab chiqishning va tender (tanlov) savdolarini o'tkazishning tarmoq jadvalini tasdiqlaydi, unda ishchi organ moliyalashtiruvchi tashkilotlarning normativ-huquqiy hujjatlari va xarid qilish qoidalari talablari doirasida aniqlangan tender (tanlov) savdolari qatnashchilari tomonidan takliflar

berishning belgilangan muddatlarini hisobga oladi;

- tender (tanlov) hujjatlarini va talabgorlarga qo'yilgan tender (tanlov) takliflarini baholash mezonlarini tasdiqlaydi;

- qonun hujjatlariga va investitsiya loyihasini amalga oshirishning tasdiqlangan jadvaliga muvofiq tender (tanlov) takliflarini tayyorlash muddatini belgilaydi;

- tender (tanlov) savdolarida qatnashish uchun qo'yiladigan talabgorlarni dastlabki malaka bo'yicha tanlashni amalga oshiradi;

- tender (tanlov) savdolarida qatnashishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi, ishchi organ bu to'g'rida talabgorlarni yozma shaklda xabardor qiladi;

- ofertalar joylangan konvertlarni ochadi, ularning tender (tanlov) savdolarining shartlariga muvofiqligini tekshiradi, konvertlarni ochish to'g'risidagi protokolni tasdiqlaydi;

- tender (tanlov) takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddatlarini tasdiqlaydi;

- tender (tanlov) hujjatlarini olish uchun to'lov miqdorini belgilaydi;

- zarurat bo'lganda, tender (tanlov) takliflarini baholash uchun ekspert va konsultatsiya tashkilotlarining vakillarini jalb etadi;

- ishchi organ ishlari natijalari bo'yicha iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)lar xarid qilish bo'yicha tender (tanlov) savdolari g'oliblarini aniqlaydi.

Iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)lar xarid qilish bo'yicha idoralararo tender komissiyasi tomonidan tenderlarni o'tkazish sxemasi (1.4-jadval)ga amal qilinadi.

Ishchi organ tarkibi idoralararo tender komissiyasining qarori bilan tasdiqlanadi va vazirlik yoki idora - loyiha tashabbuskorining, loyihalash tashkilotining, tijorat banklarining, shuningdek, tegishli vazirliklar va idoralarning yuqori malakali mutaxassislaridan shakllantiriladi. Bunda buyurtmachining tegishli vazirligi yoki idorasining rahbari ishchi organ rahbari hisoblanadi.

Iqtisodiyotning tegishli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)lar xarid qilish bo'yicha idoralararo tender komissiyasi tomonidan tenderlarni o'tkazish sxemasi¹⁴

Bosqich	Sub'yekt	Tadbirlar	Muddat
1-bosqich	Buyurtmachi	Qiymati 5 mln. dollardan ortiq ekvivalentdagi xarid qilinadigan tovar, ish va xizmatlar ro'yxatini belgilaydi va tender savdolar o'tkazish uchun tegishli idoralararo tender komissiyasiga kiritadi.	Tasdiqlangan jadvalga asosan
	Idoralararo tender komissiyasi	Tender savdolarini o'tkazish uchun ishchi organ tarkibini belgilaydi.	3 kun
	Idoralararo tender komissiyasining ishchi organi	Idoralararo tender komissiyasi tomonidan ishchi organ tarkibi tasdiqlangandan keyin: - tenderda ishtirok etish uchun talabgor tomonidan qo'yiladigan zakalatni kiritish tartibi, uning qiymati va shaklini Idoralararo tender komissiyasiga tasdiqlash uchun kiritadi; - tender takliflarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi va Idoralararo tender komissiyasiga tasdiqlash uchun kiritadi. - tender buyurtmalarini qabul qilishning oxirgi sanasini, konvertlarni ochish vaqti va joyini belgilaydi.	5 kun
	Idoralararo tender komissiyasi	Talabgor tomonidan berilgan tender (tanlov) hujjatlari va tender (tanlov) takliflarini baholash mezonlarini tasdiqlaydi shunigdek qonun hujjatlari va tasdiqlangan investitsiya loyihasini amalga oshirish jadvaliga muvofiq tender (tanlov) takliflarini tayyorlash muddatini belgilaydi.	3 kun
2-bosqich	Idoralararo tender komissiyasining ishchi organi	E'lon beradi yoki taklif yuboradi. Tender (tanlov) savdolarini ishtirokchilariga tender (tanlov) hujjatlarini beradi.	Buyurtma tushgan kundan boshlab
	Idoralararo tender komissiyasining ishchi organi	Tender savdolarida ishtirok etish uchun buyurtmalarni qabul qiladi.	30 kun
	Idoralararo tender komissiyasining ishchi organi	Tender (tanlov) takliflarni ochgunga qadar (tender savdolariga qadar) talabgorlarning dastlabki malaka tanlovini o'tkazadi, tender (tanlov) savdolari shartlarida belgilangan texnik mezonlar, eng raqobatli narx, yetkazib berish shartlari va boshqa parametrlar bo'yicha tender (tanlov) takliflarini baholashni amalga oshiradi hamda Idoralararo tender komissiyasi uchun dastlabki malaka tanlovi, tender (tanlov) takliflarini baholash natijalar bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqadi.	10 kun
3-bosqich	Idoralararo tender komissiyasi	Ishchi organning tavsiyasiga ko'ra: - agar tender (tanlov) hujjatlari shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa, tender (tanlov) savdolarida ishtirok uchun ruxsat beriladigan talabgorlarning dastlabki, malaka tanlovini o'tkazadi; - tender (tanlov) savdolarida ishtirok etishga ruxsat berishni rad etish o'g'risida qaror qabul qiladi, ishchi organ bu to'g'risida talabgorni yozma shaklda xabardor qiladi; - oferta joylangan konvertlarni ochadi, ularni tender shartlariga muvofiqligini tekshiradi, konvertlarni ochganligi to'g'risida protokolni tasdiqlaydi - zarur hollarda tender (tanlov) takliflarini baholash uchun ekspert va konsultatsiya tashkilotlari vakillarini jalb etadi; - Ishchi organ tomonidan talabgorning buyurtmanomalarini ko'rib chiqish bo'yicha malaka tanlovdan o'tgan va tenderda qatnashishga ruxsat berilgan ishtirokchilar ro'yhatini tasdiqlaydi, tender (tanlov) savdolari g'olibini aniqlaydi.	7 kun
	Buyurtmachi	Tender (tanlov) savdolari g'oliblarini aniqlash yakunlari bo'yicha tovar, iashlar va xizmatlar xarid qilish to'g'risida shartnoma tuzadi.	3 kun

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 15-sentabrdagi "Tender savdolari o'tkazishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 264-sonli Qarori

Tender (tanlov) savdolarini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha ishchi organ: tender (tanlov) hujjatlarini ishlab chiqishning va tender (tanlov) savdolarini o'tkazishning yillik tarmoq jadvalini tuzadi; e'lon beradi yoki taklifnomalar yuboradi; tender (tanlov) savdolari qatnashchilariga tender (tanlov) hujjatlarini beradi; tenderda qatnashish uchun talabgor tomonidan to'lanadigan zakalatni to'lash tartibini, miqdorini va shaklini idoralararo tender komissiyasiga tasdiqlash uchun taqdim etadi; tender (tanlov) takliflarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi va idoralararo tender komissiyasiga tasdiqlash uchun kiritadi; tender (tanlov) joyini belgilaydi; tender (tanlov) savdolari natijalari idoralararo tender komissiyasi tomonidan tasdiqlanguncha tender (tanlov) takliflarini qabul qiladi, ro'yxatdan o'tkazadi va saqlaydi; tender (tanlov) takliflarini texnik mezonlar, eng raqobatli narxlar, yetkazib berish, to'lov shartlari va tender (tanlov) savdolarining shartlarida belgilangan boshqa parametrlar bo'yicha baholashni amalga oshiradi; tender (tanlov) savdolarining barcha qatnashchilari uchun tender (tanlov) takliflarini taqdim etish muddatini uzaytirish to'g'risida idoralararo tender komissiyasi bilan kelishgan holda qaror qabul qiladi; dastlabki malaka bo'yicha tanlov va tender (tanlov) takliflarini baholash natijalari bo'yicha idoralararo tender komissiyasi uchun tavsiyalar ishlab chiqadi.

Xorijiy kreditlar va grantlar mablag'laridan yanada samarali foydalanish, mamlakatimizdagi va chet ellik mahsulot yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish, mahsulot yetkazib berishga kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarini keng jalb qilish maqsadida qiymati 100 ming AQSH dollariga teng miqdordan ortiq tovar yetkazib berish uchun tenderlar, tenderlarni o'tkazishning doimiy yoki vaqtinchalik organi bo'lgan tender komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Tender komissiyasi tovar yetkazib berish qiymati 1,0 million AQSH dollariga teng miqdordan oshmaydigan 1 kontrakt bo'yicha amalga oshirilganda xarid qiluvchi tashkilot tomonidan tuziladi. Tovar yetkazib berish qiymati 1,0 million AQSH dollariga teng miqdordan oshadigan bitta kontrakt bo'yicha amalga oshirilgan taqdirda tender komissiyasi buyurtmachi tomonidan Vazirlar

Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda tuziladi.

Tovar yetkazib berish qiymati 300 dan 100 ming AQSH dollarigacha teng summadagi 1 kontrakt bo'yicha yetkazib berishlarni amalga oshirishda xaridlar buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan maxsus komissiya qaroriga ko'ra quyidagi yo'llar bilan eng yaxshi takliflarni tanlab olish asosida tender savdolari o'tkazmasdan amalga oshiriladi.

Tender komissiyasi a'zolari soni toq (odatda 9-11 nafar), shu jumladan uning tarkibi: buyurtmachining vakillari (ularning soni tender komissiyasi tarkibining 30 foizidan oshmasligi kerak); O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi yoki ularning hududiy bo'linmalari vakillari (zarur bo'lganda); xizmat ko'rsatuvchi tijorat banki va mustaqil ekspert tashkilotlar vakillari; buyurtmachining yuqori tashkilotlari, vazirliklari, idoralari vakillari; tender savdolari xorijiy tovar yetkazib beruvchilarni jalb etgan holda tashkil qilingan taqdirda, transport-ekspeditorlik kompaniyalari vakillari iborat bo'ladi.

Tovar etkazib berish qiymati 1,0 million AQSH dollariga teng miqdordan oshadigan 1 kontrakt bo'yicha amalga oshirilganda ishchi organ buyurtmachi tomonidan Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda belgilanadi.

Ishchi organ buyurtmachi bilan kelishgan holda savdo va uni rasmiylashtirish tartibotini belgilash, tender hujjatlarini ishlab chiqish, ommaviy axborot vositalarida e'lon berish yoki taklifnomalar jo'natish, jalb etiladigan ekspertlar va konsultantlar faoliyatini muvofiqlashtirish, da'vogarlarini tender hujjatlari bilan tanishtirish, arizalarni qabul qilish, saqlash va maxfiyligini ta'minlash kabi vazifalarni bajaradi.

Tenderlarni o'tkazishda buyurtmachi: tenderlarni o'tkazish, ularning o'tkazilish sanasi to'g'risida qaror qabul qiladi, sotib olinadigan tovarlarning eng yuqori bahosini belgilaydi va rasmiy farmoyish chiqaradi; ishchi organ faoliyatini nazorat qilib boradi va tender komissiyasi ishida qatnashadi; tender hujjatlarini

tayyorlash shartlarini belgilaydi; tenderlarni tayyorlash va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni amalga oshiradi; tender g'olibi bilan kontrakt tuzish kabi ishlarni bajaradi.

I bob bo'yicha xulosa

Tender (ing. *tend* - xizmat ko'rsatish) - ochiq turdagi yoki cheklangan sondagi ishtirokchilar uchun yopiq turdagi raqobatli savdo-sotiq; buyurtmani joylashtirishning tanlov shakli; muddatli shartnomalar bo'yicha tovarlar yetkazib berish, shartnomalar tuzish to'g'risidagi ariza, yozma takliflar; xalqaro bozorda mashina-uskunalar xarid qilish, qurilishmantaj ishlarini bajarish, injiring xizmatlari ko'rsatish uchun tanlov asosida buyurtmalar berishdir.

Tender savdolari - dunyo amaliyotida tovar(ish va xizmat)larni xarid etishning asosiy mexanizmi sifatida qoraladi. Tender savdolarini tashkil etishning tartibi va shartlari umumiy qabul qilingan xalqaro me'yor va qoidalar bilan tartibga solinib turiladi. Ushbu qoidalar yirik xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar, donorlik agentliklari tomonidan investitsiya loyihasi bo'yicha xarid qilinayotgan tovar, ish va xizmatlar jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, tenderlar orqali tovar(ish va xizmat)larni xarid qilish usullari har bir mamlakatning milliy qonunchiligi, soha me'yorlari va boshqa majburiy hamda tavsiya etiladigan xujjatlar bilan belgilab beriladi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalari doirasida tender savdolarini tashkil etish va boshqarish O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari hamda tegishli davlat tashkilotlarining Yo'riqnomalari asosida tartibga solinmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda investitsiya loyihalari doirasida xorijiy kreditlar va grantlar mablag'laridan yanada samarali foydalanish, mahalliy va chet ellik mahsulot yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobatni rivojlantirish, mahsulot yetkazib berishga kichik va o'rta tadbirkorlik sub'yektlarini keng jalb qilish maqsadida tender savdolari idoralararo hamda tender komissiyalari tomonidan 3 boshqichda (2 oy davomida) amalga oshirilmoqda.

II BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARI BO'YICHA TENDERLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI TAHLILI

2.1. Investitsiya loyihalari bo'yicha tender g'olibini aniqlashga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Tender savdolarida g'olibni aniqlash ikki xil usulda amalga oshiriladi - baho asosida tanlash (inglizchada, cost based selection - CBS) va sifat asosida tanlash (inglizchada, quality based selection - QBS). Savdo natijalarini umumlashtirishda tender tashkilotchilari, ushbu ikki usulni o'zaro qo'llash orqali xulosa chiqaradilar. Bunda investitsiya loyihalari doirasida tovar yetkazib berish taklifini baholashda baho va sifat omillarining nisbati, xizmatlar ko'rsatishdagi ushbu omillar nisbatini baholashdan tubdan farq qiladi.

Tender savdolari tarixida, faqatgina, eng past so'ralgan baholarga asoslanib, g'olibni aniqlash ham kuzatilgan. Ushbu tanlov usuli oddiy va samarali bo'lgan. Ammo buyurtmachilar eng past baholar bu talab etiladigan sifat emasligini tezda tushunib yetishgan va faqatgina, savdoda ishtirok etayotgan mol yetkazib beruvchilar, pudratchilar va maslahatchilar buyurtmachiga o'zlarining yuqori sifat ko'rsatkichlari bilan oldindan ma'lum bo'lgan holat bundan mustasno. Shu sababdan, tender savdolarini rivojlanib borishi bilan buyurtmachilar tanlov hujjatlariga sifat ko'rsatkichlari bo'yicha qator talablarni qo'yishga majbur bo'lishdi va ushbu ko'rsatkichlar aksariyat holatda tanlovning asosiy mezon bo'lib qoldi.

Miqdoriy ifodalash mumkin bo'lmagan xarid turlari uchun tanlovlarda sifat omilining nisbati ancha yuqoridir. Xususan, xarid predmetini qanchalik aniq va to'liq ifodalash mumkin bo'lsa, bunday holatlarda baho omilining nisbati sifat omiliga qaraganda yuqori bo'ladi. Tender takliflarini baholash amaliyotida baho va sifat nisbati quyidagicha ifodalanadi, masalan, 70:30, 80:20 va hakoza. Ayrim savdo turlari uchun bunday nisbat buyurtmachi tomonidan tender hujjatlarida oldindan belgilab qo'yiladi va natijalarini baholashda majburiy mezon hisoblanadi. O'z navbatida, savdo natijalarini baholashda boshqa baholovchilar

dunyo amaliyotida qo'llanib kelingan tajribalarga asoslangan nisbatlarni aks ettiruvchi o'z uslubiyotlaridan ham foydalanishadi. Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, tender savdolari g'olibini tender savdolarining predmetiga qarab turlicha aniqlanadi (2.1-jadval).

2.1-jadval.

Investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolari g'olibini aniqlashga ta'sir etuvchi omillarning koeffitsent tahlili¹⁵

Investitsiya loyihasi doirasida tender turi	Baho omili	Sifat omili	Mahalliy ishtirokchi	Brend darajadagi ishtirokchi
Tovarlar yetkazib berish uchun	0.7-0.8	0.2-0.3	0.14-0.16	0.01-0.2
Bajariladigan ishlar bo'yicha	0.5-0.6	0.4-0.5	0.1-0.12	0.01-0.2
Xizmatlar ko'rsatish uchun	0.01-0.2	0.8-1.0	0.01-0.04	0.01-0.2

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolari g'olibini aniqlashga ta'sir etuvchi omillar turlichadir. Masalan tovarlar yetkazib berish uchun baho omili yuqori bo'lib, xizmatlar ko'rsatish uchun esa 20 foizgacha agar tender qatnashchisi miliy ishtirokchi bo'lsa 1-16 foizgacha g'olib bo'lish imkoniyati oshishini kuzatish mumkin.

Investitsiya loyihalari doirasida tovarlar yetkazib berish bo'yicha tender savdolari davlat va xususiy sektor uchun sanoat va boshqa tovar mahsulotlarini xarid etishda ishlatiladi. Tovarlar ham miqdoriy ham sifat ko'rsatkichlarini ifodalash oson bo'lgan xarid predmeti hisoblanadi. Tovarlar sotib olish uchun tuzilgan tender hujjatlari "Texnik ko'rsatkichlar" nomli hujjatni o'z ichiga olib, unda sotib olinishi mo'ljallanayotgan tovarning barcha ko'rsatkichlari, uning to'liq tavsifnomasi, sifat parametrlari ko'rsatiladi.

Talabgorlar uchun yo'riqnomada tovarni yetkazib berish usullari va tovar bilan bog'liq zaruriy xizmatlar bo'yicha talablar to'liq ko'rsatilgan bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, bu turdagi savdolar xaridni qanday bo'lishi zarurligini to'liqroq aks ettiradi va unda o'zgaruvchan va noma'lum o'lchovlardan nisbatan kam foydalaniladi. Bu holat, bir qarashda, sifat omilini alohida inobatga olishga zarurat yo'q, faqatgina baho omili birlamchi degan xulosani beradi va bu, ko'pchilik

¹⁵ Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

hollarda, qaysidir ko‘rinishda tender hujjatlarida o‘z aksini topadi.

Shunday bo‘lsada, dunyoning ko‘plab mamlakatlarida investitsiya loyihalari doirasida tovarlar yetkazib berish bo‘yicha tender shartnomasi eng past bahoni taklif etgan ishtirokchiga taqdim etiladi. Qolaversa investitsiya loyihalari bo‘yicha tender takliflarini ko‘rib chiqishda ma‘lum bir omillar e‘tiborga olinadi (2.1-rasm.).

“Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan moliyalashtiriladigan xarid loyihalari uchun qoida va prinsiplar” (Procurement Policies and Rules for Projects financed by the European Bank for Reconstruction and Development)	• ob’yektgacha bo‘lgan masofada ichki tashish xarajatlari miqdori; • sug‘urta qilish xarajatlari; • foydalanish bilan bog‘liq xarajatlarning miqdori; • ob’yekt quvvati va boshqa uskunalarga mos kelishi; • ehtiyot qismlarning mavjudligi va texnik xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari; • xodimlarni o‘qitish; • texnik xavfsizlik va atrof-muhitga ta’siri.
Jahon bankining namunaviy tender hujjatlari (World Bank Standard Bidding Documents)	• yetkazib berish muddatlari; • to‘lovni amalga oshirishda jadvaldan chetga chiqish; • komponentlar, zaruriy ehtiyot qismlar va xizmat ko‘rsatish qiymati; • buyurtmachining mamlakatida ehtiyot qismlar va sotishdan keyingi xizmat ko‘rsatishning mavjudligi; • asbob-uskunaning ishonchlilik darajasi, quvvati hamda boshqalar
Osiyo Taraqqiyot banki tomonidan moliyalashtiriladigan qishloq joylarida kompleks taraqqiyot uchun uy -joylar qurish investitsiya dasturi doirasida tender savdolari ishtirokchilari uchun yo‘riqnoma	• tovar narxi va uni belgilash tartibi; • yetkazib berish shartlari; • to‘lov sharti va to‘lovlar jadvali; • bitishuvlarni mablag‘ bilan ta‘minlash manbalari; • tender takliflarining qo‘shimcha texnik, tashkiliy va tijoriy ustunliklari hamda tender qatnashchisining obro‘-e‘tibori; • narx imtiyozlari berish.

2.1-rasm. Investitsiya loyihalari bo‘yicha tovarlar yetkazib berish bo‘yicha tender savdolarining g‘olibini aniqlashga ta’sir etuvchi omillar¹⁶

Investitsiya loyihalari bo‘yicha tovarlar yetkazib berish bo‘yicha tender savdolarining g‘olibini aniqlashga ta’sir etuvchi omillar (2.1-rasm.) tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan 9 ta omil muhim hisoblansa, Jahon banki 5 ta hamda Osiyo taraqqiyot banki esa 6 ta omilga e‘tibor qaratmoqda.

¹⁶Сорокин В. Ю. “Развитие системы международных тендеров в Российской Федерации” Диссертация на соискание ученой степени кандидат экономических наук Москва 2012 с. 291

Tovarlarni yetkazib berishda sifat omillari, baholash qiymatining eng past miqdorini aniqlashda, baholab bo'lmaydigan omillarni iloji boricha pul ko'rinishida hisoblashda foydalanadi. Eng past baholarni aniqlashda, baholovchilar, talabgor, mol yetkazib beruvchining baholariga ma'lum summalarni qo'shib hisoblanadi (masalan, yillik ekspluatatsiya xarajatlarini qo'shib hisoblanadi) yoki pul ko'rinishida ifodalab bo'lmaydigan omillarni inobatga olish uchun tuzatish koeffitsientlaridan foydalanishadi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalari doirasida tovarlar xaridini amalga oshirishda tender savdolari g'olibni baholashda, xalqaro amaliyotda kuzatilganida tovarlar yetkazib berish uchun tuziladigan tenderlarda baho aniqlovchi tusga ega ekanligini ko'rinadi. Tovarlarni xaridini amalga oshirishda tender savdolari g'olibni baholashda taklif etilgan narxlarning o'rtacha xalqaro va konsalting firmasi yoki Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi tovar bozorlari kon'yunkturasini o'rganish hamda investitsiya loyihalari va dasturlarini ekspertiza qilish Respublika markazi yoki Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining xulosalari bo'yicha bozor kon'yunkturasida yuzaga kelgan narxlarga mosligiga asosan amalga oshiriladi.

Ammo, baho tanlovning yagona omili emasligi va albatta sifat ko'rsatkichlari ham inobatga olinishiga e'tiborni qaratish zarur. Taqdim etilgan tender takliflarining qo'shimcha texnik, tashkiliy va tijoriy ustunliklari hamda tender qatnashchisining nufuzi ham e'tiborga olinishi mumkin.

Alohida e'tiborli xususiyat shundaki, Respublikada tender savdolari bo'yicha talabgorlar taklifini baholashda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga baho imtiyozlari taqdim etilgan. Agar tenderda xorijiy yetkazib beruvchilar bilan birga mamlakatimiz korxonalari-ishlab chiqaruvchilari ishtirok etsa, bu korxonalarga tovar (ish va xizmat)lar xaridi tender savdolarida ishtirok etganda 20 foizgacha miqdorda narx imtiyozlari beriladi. Umuman olganda, tender g'olibini aniqlashning ustuvor mezon baho omil hisoblanadi.

Shunday qilib, tovarlar yetkazib berish bo'yicha tender savdolari bo'yicha xulosa eng past baholar asosida chiqarilib, u mol yetkazib beruvchi arizasidagi

baholar (baho omili) hamda baholashning boshqa koeffitsient ko'rsatkichlari hamda tuzatish summasini (sifat omili) inobatga oladi. Baho va sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi nisbat, buyurtmachi mamlakat shart- sharoitlari, sotib olinayotgan tovar xususiyatlari va qator boshqa holatlarni inobatga olib, ko'pchilik hollarda 80-70 (baho) va 20-30 (sifat) nisbatda bo'ladi. Tovarlar sotib olish bilan bog'liq tenderlarni tashkil etishda, ishtirokchi talabgorlar taklifini baholashda faqatgina ular tomonidan, tovar yetkazib berishning arizada ko'rsatilgan qiymatlariga tayanishning o'zi yetarli ekan.

Investitsiya loyihalari doirasida bajariladigan ishlar bo'yicha tender savdolarida pudrat ishlarining kompleks tusga ega ekanligi, qator noaniq va o'zgaruvchan o'lchamlarning mavjudligi sababdan ushbu ishlarni batafsil ifodalash ancha murakkab holatdir. Pudrat savdolari bo'yicha tender hujjatlari ancha katta hajmda bo'ladi va bir-nechta bo'limlarni tashkil etadi. Ushbu hujjat to'plami tenderda ishtirok etuvchi talabgorlar uchun yo'riqnoma, loyiha yechimi (chizmasi), ishlar bajarilishining texnik shartlari, smeta va boshqa hujjatlardan tashkil topadi. Savdolarga tayyorgarlik paytida katta hajmdagi bunday hujjatlarni tayyorlash katta mehnat talab etadi, qimmat turuvchi va uzoq muddatga cho'ziluvchi jarayon hisoblanadi. Shunga qaramay, bahoga asoslangan tanlovga imkon beradigan savdolarini tashkil etish maqsadida, buyurtmachilar bajarilishi talab etiladigan ishlarni imkon qadar, batafsil ifodalashga mablag' sarflashadi.

Jahon bankining "Jahon tiklanish va taraqqiyoti bankining (JTtB) qarzlar va Jahon rivojlanish assotsiatsiyasi (JRA) kreditlari hisobiga xarid" yo'riqnomasida bajariladigan ishlar bo'yicha tender takliflarini baholash faqatgina pul ko'rinishida amalga oshirilishi aniq keltirib o'tilgan. Shunga muvofiq buyurtmachi, o'rnatilgan standartlarga mos imkoniyatlar va resurslarga ega bo'lgan savdo ishtirokchisi bilan shartnoma tuzadi. Bajariladigan ishlar bo'yicha tender takliflari:

- savdo hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga javob berishi;
- eng past baholash qiymatiga ega bo'lishi zarur.

"Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) tomonidan

moliyalashtiriladigan xarid loyihalari uchun qoida va prinsiplar” (Procurement Policies and Rules for Projects financed by the European Bank for Reconstruction and Development) hujjatining 3.30-moddasiga binoan o‘z tanlov arizasiga ko‘ra, baholashning aniq mezonlari nuqtai nazaridan, tanlov hujjatlarida o‘rnatilgan talablarga javob beradigan, hamda iqtisodiy tejamkor va shuning bilan birga, shartnomani to‘liq bajarishga qodir bo‘lgan tanlov ishtirokchisi bilan shartnoma tuziladi.¹⁷ Yo‘riqnomaning mazkur moddasining e‘tiborli tomoni shundaki, unda nafaqat baho mezoni, balki tanlov ishtirokchisining pudrat ishlarini bajara olish imkoniyati ham baholanadi. Ya’ni baholovchilar pudratchi taklifining texnik jihatlarini (ish jadvali va uni tashkil etish, asbob- uskunalarning mavjudligi va holati, boshqaruv personalning tajriba hamda kvalifikatsiyasi va boshqalar) tahlil etishi lozim. Xalqaro savdolar amaliyotida bunday tahlil-texnik tahlil sifatida ma’lum bo‘lib, bunday tahlil sifat ko‘rsatkichlarini solishtirishdan iborat va u baho omiliga aloqador emas.

Yevropa Komissiyasining 1999-yildagi “Komissiyaning uchinchi mamlakatlar bilan hamkorlik qilish maqsadida ishlar, tovarlar va xizmatlar yetkazib berish uchun tuziladigan shartnomalari” (Manual of Instructions. Contracts for works, supplies and services concluded for the purposes of Community cooperation with third countries) yo‘riqnomasida iqtisodiy jihatdan eng foydali taklifni taqdim etuvchi, ya’ni texnik baholash paytida texnik talablarga mos deb topilgan, boshqa takliflardan qimmat bo‘lmagan taklif beruvchi muvaffaqiyatli talabgor deb tushuniladi.

Bu yerda biz, Jahon bankining hujjatlarida uchramaydigan, tender takliflarining texnik baholash haqidagi ko‘rsatmaga duch kelamiz. Savdolarida, shuningdek, Injener-maslahatchilar xalqaro federatsiyasining (Federation Internationale des Ingenieurs-Conseils) “Tender jarayonlari” (tendering procedures) nomli hujjati keng qo‘llanilib, ushbu hujjat ishlarni xarid etish savdolarini o‘tkazish tartibini belgilab beradi. Mazkur hujjatning XI moddasi

¹⁷“Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB) tomonidan moliyalashtiriladigan xarid loyihalari uchun qoida va prinsiplar” (Procurement Policies and Rules for Projects financed by the European Bank for Reconstruction and Development) 2009-yil 6-may, 15-bet.

“Takliflarni baholash” deb nomlanib, u talabgor taklifini moliyaviy, texnik va shartnomaviy-ma’muriy baholashni ko‘zda tutadi. Unda asosiy taqdim etiladigan hujjatlar bilan bir qatorda: subpudratchilar va ular bajaradigan ishlar hajmi haqida axborot, ishni bajarishga jalb etiladigan asbob-uskunalar hamda pudratchining asosiy personal haqida ma’lumotlar pudratchi tomonidan ko‘rsatilishi kerak. Bu turdagi barcha ma’lumotlar sifat ko‘rsatkichlari bo‘lib, ular tender takliflarini baholashda, talabgorning baho taklifi bilan bir qatorda e’tiborga olinadi.

Shunday qilib, Jahon bankining tegishli yo‘riqnomalarida baho ko‘rsatkichi asosida pudratchilar taklifini baholash haqida tavsiya berilsada, boshqa xalqaro hujjatlarda texnik, ya’ni sifat ko‘rsatkichlari asosida ham baholashning zarurligi ta’kidlanadi. Bu savdolarni o‘tkazishda pudratchilarni ham baho, ham sifat omilini e’tiborga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Amalda konvertlar ochilgandan so‘ng, qisqa tekshirish va taklif etilgan baholar e’lon qilinadi va baholovchilar hujjatlarning to‘liqligi, arifmetik aniqlik, taklif tarkibida qo‘shimcha shartlar va muqobil variantlar borligini tekshirishga kirishadi. Shundan so‘ng taklifning tanlov hujjatlarida ko‘rsatilgan shartlarga mosligi aniqlansa, yuqoridagi qoidalarda keltirilganidek, uning baholangan qiymati aniqlanadi va baho ko‘rsatkichlari asosida holat o‘rganiladi. Bunday holatlarda, tajribali baholovchilar juda yuqori va juda past baho taklif etadigan ishtirokchilar arizalarini keyingi ko‘rib chiqishni to‘xtatadi. Chunki oxir-oqibatda bunday arizalar yoki baho ko‘rsatkichi bo‘yicha (eng yuqori baho taklifi), yoki sifat ko‘rsatkichi bo‘yicha (eng arzon baho taklifi) nomaqbul deb topiladi. Eng past baho taklifiga nisbatan norasmiy hisoblanadigan bunday amaliy qoidaning mavjudligining o‘zi ham, pudrat ishlarini bajarishda bahoga asoslangan tanlovning hal qiluvchi emasligidan guvohlik beradi.

Ushbu bosqichdan so‘ng, pudrat ishlarini muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlaydigan, yuqorida ko‘rib o‘tilgan sifat ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqiladi va taklifni texnik baholash amalga oshiriladi. Shunday holatlar ham ma’lumki, past baholi takliflar ham asosiy vositalarning yo‘qligi yoki eskirganligi sababli, ba’zan rahbarlik xodimlarining past malakaliligi tufayli muvaffaqiyat qozonmaydi. Ba’zi

holatlarda, pudratchi o'z taklifida qurilish jarayonini yetarlicha asosli rejalashtira olmagan va uni amalga oshirish uchun zaruriy tashkiliy tuzilma va tadbirlarni oldindan ko'ra olmaganligi ma'lum bo'ladi. Ushbu sabablarning barchasi, past baholar taklifi berilishiga qaramay, pudratchi taklifidan voz kechishga olib keladi.

O'zbekistonda tanlov hujjatlarining texnik qismiga talablarni hamda markazlashtirilgan manbalar (davlat budjeti mablag'lari, budjetdan tashqari jamg'arma va Hukumat qarorlari bilan tashkil etilgan alohida tarmoqlar va tashkilotlarning maxsus jamg'armalari, O'zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati yoki uning nomidan jalb etiladigan chet el kreditlari, O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari) davlat boshqaruv organlari va davlat korxonalari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan barcha turdagi ishlar va xizmatlar tanlov hujjatlarini baholashda sifat omilining usutvorligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, tender savdosi ishtirokchilariga qo'yiladigan talablarga amal qilinganligi ya'ni litsenziya, yetarli ish tajribasining borligi, moliyaviy holati, texnika bilan jihozlanishi, savdoning aniq inshootlariga qarab boshqa malaka talablarini, takliflarni texnik va moliyaviy baholashda mezonlarini qo'llashning o'ziga xolisligini kuzatish mumkin.

Pudrat ishlari bo'yicha tanlovlarni tashkil etishning nazariy va amaliy tajribasi shundan dalolat beradiki, baholar asosida tanlash usuli tanlovlarda g'olibni aniqlaydigan yagona ayni vaqtda maqbul usul emas, balki u baholashning sifat omillari bilan birga qo'llaniladi. Ishlarni xarid qilish bo'yicha savdolarida baho-sifat nisbati, odatda, 60:40, ayrim hollarda talabgorlarga ko'plab qo'shimcha talablar mavjud bo'lganda 50:50 ni tashkil etadi.

O'z-o'zidan, baho va sifat o'rtasidagi bunday nisbat shartli bo'lsada, tender savdolarida yirik hajmdagi pudrat ishlari taklifini baholash, hech qachon talabgor taklif etgan baholar asosida emas, balki baho va sifat deyarli teng ko'rsatkichlarga ega bo'lgan, baho va sifat omillarini birgalikdagi tahlili asosida aniqlanadi.

Investitsiya loyihalari doirasida xizmatlar ko'rsatish uchun tender savdolarida aniq ifodalash qiyin bo'lgan savdo predmeti hisoblanadi. Tashkiliy va boshqaruv bo'yicha maslahatchilar, loyihachilar, iqtisodchilar, yuristlar, nazorat

injenerlari xizmatlarini, kichik bosqichlarga ajratish va talabgorlar taklifini baholashda qo'llash mumkin bo'lgan bir xil qiymatli tushunchalar asosida ifodalash murakkabdir. Shunday bo'lsada, savdoning aynan shu turida "baho-sifat" nisbati yo'riqnomalarda aniq ko'rsatib berilgan - maslahatchilarni tanlashning asosiy omili bu sifat ko'rsatkichidir. Baho, odatda, juda kichik nisbatga ega, ayrim holatlarda unga umuman e'tibor berilmaydi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda ham xizmatlar ko'rsatish uchun tender savdolarini g'olibini aniqlash jarayoniga e'tibor bersak unda asosan sifat omili muhim hisoblanadi (2.2-jadval.).

Maslahatchilar xizmatini xarid etishga shuncha e'tibor talab etilishi shuki, unlar xizmatini xuddi tovar (ish)lar savdosida bo'lganidek, mayda detaligacha ifodalash va baholash ancha murakkabligi bilan izohlanadi. Ikkinchi omil esa, ko'rsatilgan xizmatning sifati mutaxassisning malakasi, tajribasi va taklif etilgan vaqtiga bog'liqdir. Xizmat qiymati (bahosi)ning pasayishi, har qanday holatda ham, yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatkichlar bo'yicha xizmat ko'rsatish sifatining pasayishini bildiradi. Bundan tashqari, maslahatlar ko'rsatish bozori ancha vaqtlardan beri shakllanib kelmoqda va baholarning nisbatan ma'lum darajada barqarorligi bilan ajralib turadi. Baholar asosida tanlov g'oliblarini belgilash bo'yicha qilingan urinishlar natijasida, juda past sifatli xizmatlarga ega bo'lindi. Savdolardagi bu tajriba, baholar asosida tanlash taqdim etilgan xizmatlar takliflaridan eng optimalini tanlash usuli emasligini isbotladi. Shu sababli, bugungi kunda xizmatlarni xarid etish bo'yicha xalqaro savdolarni olib borishda, sifat asosidagi tanlov (QBS) ishlatiladi yoki sifat va baho asosidagi tanlovdan (QCBS) foydalanilsada, bunda bahoning nisbati aniqlovchi ko'rsatkich bo'la olmaydi.

Sifat asosida tanlov o'tkazishda maslahatchilarning taklifi texnik va geografik ish tajribasi, ishlarni bajarish uchun ko'zda tutilayotgan usullar, malaka va asosiy mutaxassislarning ish tajribasi, loyiha bo'yicha ishni tashkil etish, ta'minot va boshqa shu kabi texnik ko'rsatkichlar asosida baholanadi. Bu texnik baholash deyiladi.

2.2-jadval.

Yo'lovchilar tashishni tashkil etish komissiyasi tomonidan ochiq tender larni g'olibini aniqlashning ballik tizimi¹⁸

Transportning rusumi uchun ballarning tabaqalashtirilgan shkalasi			
Rusumi		Bitta transport uchun ballar soni	
1	“Mercedes-Benz”	10,0	
2	“ISUZU”	8,0	
Tashuvchi tomonidan taklif qilinayotgan avtobuslar rusumlari bo‘yicha aniqlangan ballar jamlanadi va yo‘nalishning talab qilinayotgan avtobuslarning rejali soniga bo‘ladi. Masalan, yo‘nalishda 6 ta “Mercedes-Benz” rusumli avtobuslar mo‘ljallanmoqda. Tashuvchi tomonidan 8 ta “ISUZU” avtobuslari taklif etiladi. Ballar soni = 8ta avtobus x 8,0 ball: 6ta jadval = 10,66.			
Transportning ishlatilish yillari uchun ballarning tabaqalashtirilgan shkalasi			
Ishlatilish yillari		Bitta transport uchun ballar soni	
1	1 yildan 3 yilgacha	5,0	
2	3 yildan 5 yilgacha	4,5	
Har bir transport vositasi bo‘yicha aniqlangan ballar, uning ishlatilish yillariga ko‘ra jamlanadi, so‘ngra tashuvchi tomonidan taklif qilinayotgan avtobuslar soniga bo‘linadi. Masalan, yo‘nalishda tashuvchi tomonidan 2 ta “Mercedes-Benz” (ishlatilish yili 2 yil) hamda 3 ta “ISUZU” (ishlatilish yili 4 yil) rusumli avtobuslar taklif etildi. Ballar soni = ((2ta “Mercedes-Benz” avtobus x 5,0 ball) + (3ta “ISUZU”avtobus x4,5)):5= 4,7.			
Transportning umumiy sig‘imi uchun ballarning tabaqalashtirilgan shkalasi			
Qatnayotgan transport rusumi	Pasport bo‘yicha umumiy sig‘imi	To‘g‘rilovchi koeffitsient	Bitta transport uchun ballar soni
Texnik-foydalanish parametrlari bo‘yicha bazaviy darajasi	37	1,0	5,0
To‘g‘rilovchi koeffitsient (Ushbu na‘munada “ISUZU” avtobusi sig‘imiga) taklif etilayotgan sig‘imni texnik-foydalanish parametrlari bo‘yicha bazaviy (talab qilinayotgan) darajaga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Masalan, yo‘nalishda tashuvchi tomonidan “Mercedes-Benz” pasport bo‘yicha umumiy sig‘imi 110 ta avtobus taklif etilmoqda. Ballar soni = ((“Mercedes-Benz” pasport bo‘yicha umumiy sig‘imi 110 : “ISUZU”avtobusi pasport bo‘yicha umumiy sig‘imi 37) x bitta transport uchun ballar soni 5,0 = 14,8.			
Tig‘iz paytda taklif qilinayotgan qatnovlar oralig‘idagi vaqt uchun ballarning tabaqalashtirilgan shkalasi			
Qatnovlar oralig‘idagi vaqt (daqiqaga)	Hisobga olinadigan ball	Oshirish koeffitsienti	Eng yuqori ball
Talab qilinadigan oraliq vaqt 15daqiqaga	5,0	1,0	5,0
Oraliq vaqtini kamaytirish uchun:			
3 daqiqaga	5,0	1,05	5,25
6 daqiqaga	5,0	1,1	5,5
9 daqiqaga	5,0	1,15	5,75
12 daqiqaga	5,0	1,2	6,0
15 daqiqaga	5,0	1,25	6,25
Tig‘iz payt o‘rtasida qatnovlar oralig‘idagi vaqt yo‘nalishga bir marta borib-qaytish vaqtini ishlayotgan avtobuslar soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi. Masalan, birinchi yo‘nalishda tashuvchi tomonidan “Mercedes-Benz” 4 ta, ikkinchi yo‘nalishda tashuvchi tomonidan “Mercedes-Benz” chining oraliq vaqti = bir marta borib-qaytish vaqti 1soat: “Mercedes-Benz” 4 ta= 15 daqiqaga, ikkinchi tashuvchining oraliq vaqti = bir marta borib-qaytish vaqti 1soat: “Mercedes-Benz” 5 ta= 12 daqiqaga. Oraliq vaqt 3 daqiqaga kamayganligi uchun 5,25 ball beriladi.			

¹⁸O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 17-avgustdagi “Shahar yo'lovchilar transportida ochiq tenderlar tashkil etish va ularni o'tkazish masalalari to'g'risida”gi 350-sonli Qarori asosida shakllantirildi.

Tender hujjatlarida koʻzda tutilgan holatlar boʻyicha baholash ballari qoʻyiladi, shundan soʻng savdoda gʻolib chiqqan talabgor xizmat bahosini kelishib olish uchun suhbatga taklif etiladi. Sifat asosida tanlov oʻtkazishda, talabgorning arizada koʻrsatgan xizmat bahosiga eʼtibor berilmaydi va u faqatgina shartnoma tuzish jarayonida muhokama qilinadi.

Sifat va baho asosida tanlov oʻtkazishning sifat asosida tanlov oʻtkazishdan farqi shundaki, boshda texnik tahlil amalga oshiriladi va u tugamaguncha, moliyaviy koʻrsatkichlar inobatga olinmaydi. Texnik tahlildan soʻng, taklifni moliyaviy (baho) jihatdan baholash amalga oshiriladi va natijada, har bir taklif maʼlum formula asosida aniqlanadigan moliyaviy baholash ballini toʻplaydi. Keyingi jarayon bu - texnik va moliyaviy ballarga tender hujjatlarida koʻrsatilgan koeffitsientlar boʻyicha tuzatishlar kiritish (odatda, bu 0.8 texnik uchun va 0.2 moliyaviy ball uchun) va umumlashtirishdan iborat. Tanlov gʻolibi texnik va moliyaviy ballar boʻyicha aniqlanadi.

Yuqoridagilardan shuni kuzatish mumkinki, xizmatlarni xarid etishning sifatga asoslangan tanlovlarida baho omili umuman eʼtiborga olinmaydi (QBS usuli) yoki umumiy ballarning faqatgina 20 foizini tashkil etadi (QCBS usuli). Shunday qilib, xizmatlar koʻrsatish boʻyicha savdolarini oʻtkazishda “baho-sifat” nisbati yoki 0:100 yoki 20:80 ni tashkil etadi. Ayrim holatlarda, masalan, koʻrsatiladigan xizmatlar bir xillik tusiga ega boʻlib, aniqroq ifodalash mumkin boʻlsa, unda sifat va baho asosidagi tanlov nisbati 70:30 boʻlishi mumkin. Ushbu holatlarda mazkur nisbat faqatgina nazariy boʻlib qolmasdan, balki xizmatlarni xarid etish boʻyicha yuqorida keltirilgan qoʻllanmalarda yoki tender hujjatlarida rasmiy ravishda qayd etilishi lozim.

Shunday qilib, xizmatlar xarid etish boʻyicha savdolarini tashkil etishning oʻziga xos xususiyati shundaki, unda sifat aniqlovchi omil boʻlsa, baho esa, ikkinchi darajali oʻlchov hisoblanadi.

Yuqorida koʻrib oʻtilgan uch turdagi tender takliflarini baholashning oʻziga xos jihatlarining tahlili shuni koʻrsatadiki, ayrim olingan tender turlari uchun yoʻriqnomalar baho omilini tanlovning yagona omili sifatida qayd etsada, sifat

ko'rsatkichlari qaysidir nisbatda albatta, inobatga olinadi. Takliflarni baholash bo'yicha tajribali mutaxassislar, rasmiy hujjatlarda sifat omilini baholashning aniq belgilangan uslubiyoti mavjud emasligiga qaramay, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarni tanlashda sifat omilini hisobga oladilar. Maslahatchilar xizmati bo'yicha esa, bunday turdagi savdolarida sifat omili yetakchi rol o'ynaydi.

Tender savdolarini tashkil etishning uzoq davr davomida kuzatilgan tajribasi shundan dalolat beradiki, faqat baho asosida tanlov, xarid qilinayotgan tovar (bajariladigan ish va xizmat)larni zaruriy sifat darajasida ekanligi uchun asos bo'la olmaydi. Bu o'z navbatida, loyiha uchun yo'naltirilgan investitsiyalarni optimal bo'lishiga ta'sir etadi. Shu bilan bir vaqtda, sifat omilini inobatga olish, savdolarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsadga erishish - tovar (ish va xizmat)larni eng past baholarda optimal sifat bilan xarid qilish imkonini beradi.

2.2. Idoralararo tender komissiyasi tomonidan tenderlarni tashkil etish va boshqarish amaliyoti tahlili

Iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari doirasida qiymati 5 million AQSH dollaridan ortiq tovar (ish va xizmat)larni xarid qilish bo'yicha idoralararo tender komissiyalari tuziladi. Ular investitsiya loyihalari doirasida mablag'lardan samarali va oqilona foydalanishga hamda loyihalarni amalga oshirish tartibotlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolari, investitsiya loyihasining qiymatiga ko'ra idoralararo, tender hamda mahsus tanlov komissiyalari tomidan tashkil etiladi (2.3-jadval).

Iqtisodiyotning tarmoqlarida va ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalar bo'yicha tovar (ish va xizmat)larni xarid qilish bo'yicha idoralararo tender komissiyasi iqtisodiyotning har bir sohasi uchun alohida tuziladi. Masalan, geologiya, yoqilg'i-energetika majmuasi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati sohasida investitsiya loyihalar bo'yicha tovar (ish va xizmat)lar sotib olish uchun (17 nafar), mashinasozlik, avtomobilsozlik va elektr

sanoati, mahsulotlarni standartlashtirish sohasidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida tovar (ish va xizmat)lar sotib olish uchun (13 nafar) kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish sanoati investitsion loyihalar doirasida tovar (ish va xizmat)lar sotib olish uchun (15 nafar), qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va iste'mol mahsulotlari sohasida amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)lar sotib olish uchun (16 nafar), sog'liqni saqlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida tovar (ish va xizmat)lar sotib olish uchun (13 nafar), ta'lim, madaniyat va sport sohasidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida tovar (ish va xizmat)lar sotib olish uchun (13 nafar), axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar sohasidagi investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida tovar (ish va xizmat)lar sotib olish uchun (15 nafar) idoralararo tender komissiyasi tuziladi.

2.3-jadval.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etuvchi komissiyalar¹⁹

№	Tender komissiyasi nomi	Loyiha qiymati (AQSH dollari ekvivalentida)	Tender komissiyasi soni (nafar)
1	Idoralararo tender komissiya	5 000 000 dan yuqori	13-17
2	Tender komissiya	100 000 - 5 000 000	9-11
3	Mahsus tanlov komissiya	300 - 100 000	3
4	Birja savdolari	300 dan kichik	-

Idoralararo tender komissiyasi umumiy tarkib a'zolarining kamida 75 foizi, shu jumladan komissiya rahbari qatnashgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Komissiyasining qarorlari majlislarda ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Ayni paytda, mamlakatimizda, idoralararo tender komissiyalari tomonidan investitsiya loyihalarining tender savdolari O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi - bu mamlakat iqtisodiyotini


¹⁹ Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral-xom ashyo, moliyaviy, moddiy, va mehnat resruslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan iqtisodiyotning tarmoqlari va mamlakatimiz tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar kompleksidan iboratdir.²⁰O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturi:

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlarining tarkibiy qismi hisoblanadi va davlat investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi;

- loyiha-qidiruv ishlaridan boshlab mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umumdavlat dasturlari bajarilishini ta'minlash uchun ob'ektni foydalanishga topshirishgacha bosqichlarni hisobga olgan holda, investitsiya loyihalarini amalga oshirish muddatlarini va moliyalashtirish manbalarini hisobga olib, har yili Dasturning asosiy ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan va aniq ro'yxati yangilangan holda uch yillik davr shakllantiriladi.

Idoralararo tender komissiyasi tomonidan Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha tender savdolarini samarali tashkil etish moliyaviy resurslarni o'z vaqtida jalb etish yo'li bilangina erishish mumkin. Buning uchun o'z mablag'larimizni ham, tashqi kreditlarni ham bevosita investitsiyalar va ularning barcha manbalarini ham ishga solish zarur (2.2-rasm.).




2.2-rasm. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish shakllari²¹

²⁰O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni 2014-yil 10-dekabr

²¹ B.S. Mamatov D.Y. Xujamqulov, O.Sh.Nurbekov "Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish" Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2014-yil 608 bet.

Idoralararo tender komissiya tomonidan Investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha tender savdolarini o'tkazgandan so'ng, loyihadan kutilgan samarani olish uchun, avvalo investitsiya loyihasini moliyalashtirish manbasiga e'tibor beriladi. Bugungi kunda ko'plab loyihalar ustidan tender o'tkazilgandan so'ng, tenderda yutib olgan ishtirokchining ma'suliyatsizligi tufayli loyihalar o'z vaqtida amalga oshirilmay qolmoqda. Bu holatni biz, ayniqsa qishloq joylarida qurilayotgan uy-joy qurilishlarida ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, hozirgi kunda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, investitsiya faoliyatining murakkab muammolaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi investitsiya dasturida kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari ikki guruhga ajratilgan (2.3-rasm.).



2.3-rasm. Kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish manbalari²²

²² Uzoqov A., Nosirov E., Saidov R., Sultonov M. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD - MOLIYA", 2006-yil, 263b.

Idoralararo tender komissiyasi tomonidan investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etishda quyidagi talablar bajarilishi talab etiladi:

- investitsion loyihaning belgilangan tartibda tasdiqlangan texnik iqtisodiy asosi mavjudligi;
- moliyalashtirish manbalar aniqligi va shartnomada kelishilgan muddatda kreditlar to'lanishi;
- loyiha tashabbuskori tomonidan loyiha pasporti, amalga oshirilish grafigi va loyiha holati haqida batafsil ma'lumot berish.

Investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etishda idoralararo tender komissiyasi tomonidan investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshishiga zamin yaratish maqsadida quyidagi:

- tovar (ish va xizmat)lar bahosining bozor kon'yunkturasiga mosligi raqobatbardoshligi;
- tovar (ish va xizmat)larni sotish jarayonida mahalliy xom-ashyodan foydalanish darajasi;
- tovar (ish va xizmat)lar sifati va tegishli sertifikatga ega bo'lishi;
- rivojlangan davlatlar tovar (ish va xizmat)lar sotish bozorini o'rganish;
- tovar (ish va xizmat)larni sotish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kabi omillarga e'tibor qaratmoqda.

Bunday sa'y-harakatlar natijasida, bugungi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga 16,6 mlrd. AQSh dollari miqdorida yoki 2015-yilga nisbatan 9,6 foizga ko'p investitsiyalar yo'naltirildi. O'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 11,3 foizga o'sdi va 3,7 mlrd. dollardan oshib ketdi. Umumiy qiymati 5,2 mlrd. dollar bo'lgan 164 ta yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish yakunlandi²³.

“JM O'zbekiston” aksiyadorlik jamiyatida qiymati 104,2 mln. AQSH dollarlik “T-250” modeldagi yengil avtomobillarni ishlab chiqarish, qiymati 116 mln. AQSH dollarlik Jizzax viloyatida sement zavodi kengaytirish, qiymati 248.5

²³Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: “O'zbekiston” NMIU, 2017-yil. 104 b.

mln. AQSH dollarlik Tolimarjon issiqlik energiya stansiyasida quvvati 900 MVt bo'lgan bug'-gaz qurilmalari qirish loyihasi hamda qiymati 226 mln. AQSH dollarlik Angren issiqlik energiya stansiyasida quvvati 150 MVt bo'lgan yuqori kulli ko'mirni yoquvchi energiya bloki ishga tushirish singari investitsiya loyihalari samarali amalga oshirildi. Bu jarayonlarni O'zbekiston Respublikasining 2015-2017-yillardagi investitsiya dasturi ma'lumotlarida kuzatish mumkin (2.4-jadval).

2.4-jadval.

O'zbekiston Respublikasining 2015-2017-yillardagi investitsiya dasturi parametrlari (mln. so'm)²⁴

№	Moliyalashtirish manbasi	2015-yil	2016-yil	2017-yil (rejalashtirilgan)
	Kapital qo'yilma, jami shu jumladan:	40 605 781	49 938 511	61 403 402
1	Markazlashgan investitsiyalar	8 991 846	11 575 698	15 706 620
1.1	Budjet mablag'lari	1 800 000	2 100 000	2 450 000
1.2	Davlat maqsadli jamg'armalar	2 316 436	2 989 494	3 479 164
1.3	Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi	225 530	264 500	373 185
1.4	O'zbekiston Respublikasining "Tikalanish va taraqqiyot" jamg'armasi (so'm ekvivalentida)	2 002 273	2 359 930	2 812 745
1.5	Davlat kafolati ostidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar	2 466 207	3 861 774	6 591 528
2	Markazlashmagan investitsiyalar	31 613 935	38 362 813	45 696 782
2.1	Korxona mablag'lari	11 818 348	14 239 900	16 981 877
2.2	Tijorat banklarining kreditlari va boshqa qarz shakllari	5 345 600	5 870 000	7 487 400
2.3	Tog'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (so'm ekvivalentida)	6 564 187	7 798 338	9 424 355
2.4	Aholi mablag'lari	7 885 800	10 453 575	11 803 150

Albatta bu jarayonlar iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)larni xarid qilish bo'yicha tender savdolarining muvoffaqiyati sifatida keltirib o'tishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalari bo'yicha idoralararo tender komissiyasi tomonidan 2016-yilda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish

²⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi to'g'risida"gi PP-2264, PP-2458 va PP-2697-sonli Qarorlari

hamda yangi ob'yektlarni qurish maqsadi markazlashgan manbalar hisobidan qiymati 5.6 mlrd. dollar bo'lgan 66 ta yirik investitsiya loyihasi bo'yicha tender savdolari o'tkazildi. Buning natijasida mamlaktimizda 4984 ta yangi ishchi o'rni yaratilganligi (2.5-jadval.) kuzatildi.

2.5-jadval.

Idoralararo tender komissiyasi tomonidan 2016-yilda o'tkazilgan tender savdolari tahlili²⁵

Idoralararo tender komissiyasi sohasi nomi	Loyiha soni	Loyiha qiymati (mln. AQSH dol.)	Loyiha samaradorligi (yaratilgan ish o'rni)
Geologiya, yoqilg'i-energetika majmuasi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati	24	2 177.94	665
Mashinasozlik, avtomobilsozlik va elektr sanoati, mahsulotlarni standartlashtirish	10	334.89	1 491
Kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish sanoati	9	2 382.67	111
Qishloq va suv xo'jaligi, iste'mol va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash	14	337.52	2 124
Sog'liqni saqlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish	7	87.6	217
Ta'lim, madaniyat va sport sohasi	-	-	-
Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar	2	30.6	376

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalari bo'yicha idoralararo tender komissiyasi tomonidan 2016-yilda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hamda yangi ob'yektlarni qurish maqsadi geologiya, yoqilg'i-energetika majmuasi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati sohasida jami 24 ta yirik investitsiya loyihasi doirasida tender savdolari tashkil etilib 665 ta yangi ishchi o'rni yaratilgan. Ammo, qishloq va suv xo'jaligi, iste'mol va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida qiymati 337,52 mln. AQSH dollar bo'lgan investitsiya loyihasi doirasida o'tkazilgan tender savdolari natijasida 2124 ta ishchi o'rni yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalari bo'yicha idoralararo

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PP-2458-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2016-yilga mo'ljallangan investitsiya dasturi to'g'risida"gi Qarori 2015-yil 25-dekabr.

tender komissiyasi tomonidan 2016-yilda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hamda yangi ob'yektlarni qurish maqsadi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kreditlar hisobidan qiymati 4,7 mlrd. dollar bo'lgan 38 ta hamda korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan 18109 mlrd. so'm bo'lgan 322 ta yirik investitsiya loyihasi bo'yicha tender savdolari o'tkazildi (2.6-jadval).

2.6-jadval.

Idoralararo tender komissiyasi tomonidan markazlashmagan manbalar hisobidan 2016-yilda o'tkazilgan tender savdolari tahlili²⁶

Idoralararo tender komissiyasi sohalar nomi	Loyihalar soni		Loyiha qiymati	
	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	Korxona mablag'i	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya (mln. AQSH dol.)	Korxona mablag'i (mlrd. so'm)
Jami:	70	322	1345,8	18109,4
Idoralararo tender komissiyasi tomonidan jami:	38	130	1265,1	12910,3
Geologiya, yoqilg'i-energetika majmuasi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati	14	68	1208,3	11309,0
Mashinasozlik, avtomobilsozlik va elektr sanoati, mahsulotlarni standartlashtirish	2	4	6,3	266,6
Kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish sanoati	5	27	44,94	492,9
Qishloq va suv xo'jaligi, iste'mol va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash	12	20	182,88	584,1
Sog'liqni saqlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish	1	10	5,5	120,9
Ta'lim, madaniyat va sport sohasi	1	-	16,0	-
Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar	3	1	312,7	136,7

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, investitsiya dasturiga kiritilgan markazlashmagan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan qiymati 10,1 mlrd. AQSH dollar bo'lgan 360 ta investitsiya loyihalari doirasida tender savdolari o'tkazilganligi va bu markazlashgan manbalar hisobidan amalga oshiriladigan tender savdolariga nisbatan ko'p ekanligini keltirib o'tish mumkin. Bu jarayon

²⁶O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi to'g'risida"gi PP-2458-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi

mamlaktimizda turli mulkchilik shakllarini qaror topib borayotganligini yana bir isbotidir. Bugungi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida davlating bozor munosabatlariga aralashuvini cheklanganligi kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarining faollashuviga omil bo'ldi.

2.3 Tender(tanlov) komissiyasi tomonidan tenderlarni tashkil etish va boshqarish amaliyoti tahlili

Investitsiya loyihalari doirasida amalga oshiriladigan tender savdolari savdo predmetiga qarab tovarlar sotib olish, bajariladigan ishlar hamda xizmatlar ko'rsatish uchun alohida tashkil etiladi. Shu rejani o'rganish davomida, xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo'yicha tender komissiyalari hamda kapital qurilish sohasida tovar (ish va xizmat)lar xarid qilish bo'yicha tanlov komissiyalari tomonidan o'tkazilgan tender savdolari amaliyoti tahlili amalga oshirildi.

Kapital qurilishda tender savdolari quyidagi faoliyatni amalga oshirish uchun tashkil etiladi:

- yangi qurilish;
- korxonalarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, zamonaviylashtirish va texnik qayta jihozlash;
- ob'yektlar va asosiy vositalarni mukammal ta'mirlash
- loyiha-qidiruv ishlarini bajarish uchun.

Hozirgi kunga kelib, O'zbekistonda kapital qurilish sohasida ma'lum tajriba ortirildi. Natijada, mamlakat iqtisodiyotida yaratilayotgan YaIMni 8-10 foizga yaqini aynan kapital qurilish ulushiga to'g'ri kelmoqda (2.6-jadval.).

Bu o'rinda, mamlaktimizda amalga oshirilayotgan qurilish-pudrat ishlarini tahlili muhim hisoblanadi. Bu jarayonlarni o'rganishda tanlov komissiyalari faoliyatini ham tahlil qilish lozim. tanlov komissiyasi - tanlov hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq ofertalarni o'rganib, tekshirib va ko'rib chiqib, tanlov savdolari g'olibini aniqlovchi buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan

doimiy yoki vaqtinchalik organ hisoblanadi.

Kapital qurilishda tender savdolarini tashkil etishni o'ziga hos xususiyatlari mavjud. Agar tanlov savdolari predmeti xaridining umumiy qiymati 50 ming AQSH dollariga teng summani tashkil etgan hollarda ular:

-xarid qilinadigan tovar (ish va xizmat)larning tavsifi, miqdori, bajarish muddatlari va ularni yetkazib berish punkti ko'rsatilgan holdagi takliflarni talabgorlarga yuborish;

-yetkazib beruvchi yoki pudratchi tomonidan e'lon qilingan baho va tavsiflarni taqqoslash yo'li bilan erkin savdo amalga oshirilishi mumkin.

2.6-jadval.

O'zbekiston kapital qurilish sohasiga yo'natirilayotgan investitsiyalar hajmi (mlrd. so'm)²⁷

Ko'rsatkichlar	2014-yil	2015-yil	2016-yil
YaIM	144867,9	171369,0	199325,1
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	33715,3	40737,3	49476,8
Qurilish ishlari	19779,3	25329,1	29265,8

Shuningdek, xorijiy pudrat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan va erkin muomaladagi valyutada haq to'lanadigan xorijiy kreditlar va grantlar hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda, agar xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan tuzilgan kredit shartnomalarida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, tanlov hujjatlariga ish (xizmat)lar qiymatining kamida 50 foizi miqdorida ish (xizmat)larni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasining xo'jalik yurituvchi sub'yektlari - rezidentlari ishtirok etishi shartlari kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan markazlashtirilgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan 500 mln. so'mgacha qiymatda bo'lgan ob'yektlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha ishlarni bajarish uchun pudrat tashkilotlarini tanlash faqat kichik biznes sub'yektlari o'rtasida amalga oshiriladi.

²⁷O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi //https://www.stat.uz.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes sub'yektlari mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning 59 foizini, asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning 35 foizini, kapital qurilishdagi ishtiroki esa jami kapital qurilishda bajarilgan ishlarning 70 foizini tashkil qilganligini (2.7-jadval.) keltirib o'tish o'rinlidir.

2.7-jadval.

Kichik tadbirkorlik(biznes)ning kapital qurilishda ulushi (foiz hisobida)²⁸

Ko'rsatkichlar	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil
YaIM	55,8	56,11	56,5	56,9
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	32,7	35,4	35,8	36,2
Qurilish ishlarida	71,5	69,5	66,7	66,9

Bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalari bo'yicha tender komissiyasi tomonidan 2016-yilda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hamda yangi ob'yektlarni qurish maqsadi markazlashgan manbalar hisobidan qiymati 1,2 milliard dollar bo'lgan 64 ta yirik investitsiya loyihasi bo'yicha tender savdolari o'tkazildi. Buning natijasida mamlaktimizda 988 ta yangi ishchi o'rni yaratildi (2.8-jadval.).

Savdo predmetiga ko'ra tender savdolarining ikkinchi turi tovar yetkazib berish uchun tender savdolari - xorijiy kreditlar va grant mablag'laridan samarali foydalanish maqsadida, chet ellik mahsulot yetkazib beruvchilar hamda kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalarini xarid qilish yuzasidan tashkil etiladi.

Tenderlarni o'tkazishning doimiy yoki vaqtinchalik organi bo'lgan tender komissiyasi tomonidan qiymati 100 ming AQSH dollariga teng miqdordan ortiq bitta kontrakt bo'yicha tovarlar yetkazib berishni amalga oshirishda o'tkaziladi.

Tovarlar yetkazib berishda o'tkaziladigan tender savdolarini tashkil etishni o'ziga hos xususiyatlari mavjud ya'ni tender komissiyasi tovar yetkazib berish qiymati 1,0 mln. AQSH dollariga teng miqdordan oshmaydigan 1 kontrakt bo'yicha amalga oshirilganda xarid qiluvchi tashkilot tomonidan tuziladi. Tovar

²⁸O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi //https://www.stat.uz.

yetkazib berish qiymati 1,0 mln. AQSH dollariga teng miqdordan oshadigan 1 kontrakt bo'yicha amalga oshirilgan taqdirda tender komissiyasi buyurtmachi tomonidan Vazirlar Mahkamasining tegishli komplekslari bilan kelishgan holda tuziladi.

2.8-jadval.

Tender komissiyasi tomonidan 2016-yilda o'tkazilgan tender savdolari tahlili²⁹

Tender komissiyasi sohasi nomi	Loyiha soni	Loyiha qiymati (mln. AQSH dol.)	Loyiha samaradorligi (yaratilgan ish o'rni)
Geologiya, yoqilg'i-energetika majmuasi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati	11	26,42	115
Mashinasozlik, avtomobilsozlik va elektr sanoati, mahsulotlarni standartlashtirish	8	11,45	74
Kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish sanoati	8	25,51	110
Qishloq va suv xo'jaligi, iste'mol va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash	22	32,40	370
Sog'liqni saqlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish	1	1,44	2
Ta'lim, madaniyat va sport sohasi	12	25,22	236
Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar	2	4,88	81

Tender komissiyasi a'zolari soni toq (odatda kamida 9-11 nafar), shu jumladan uning tarkibi quyidagi shaxslardan iborat bo'ladi:

- buyurtmachining vakillari (tender komissiyasi tarkibining 30 foizidan oshmasligi kerak);

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi yoki ularning hududiy bo'linmalari vakillari (zarur bo'lganda);

- xizmat ko'rsatuvchi tijorat banki va mustaqil ekspert tashkilotlar vakillari;

- buyurtmachining yuqori tashkilotlari, vazirliklari, idoralari vakillari;

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi to'g'risida"gi PP-2458-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

-tender savdolari xorijiy tovar yetkazib beruvchilarni jalb etgan holda tashkil qilingan taqdirda, transport-ekspeditorlik kompaniyalari vakillari.

Xorijiy xorijiy pudrat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan va erkin muomaladagi valyutada haq to'lanadigan xorijiy kreditlar va grantlar hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda, agar xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan tuzilgan kredit shartnomalarida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, tanlov hujjatlariga ish (xizmat)lar qiymatining kamida 50 foizi miqdorida ish (xizmat)larni bajarish uchun O'zbekiston Respublikasining xo'jalik yurituvchi sub'yektlari - rezidentlari ishtirok etishi shartlari kiritiladi.

Xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo'yicha tender komissiyalari O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalari doirasida 1 kontrakt bo'yicha qiymati 300 dan 100 ming AQSH dollarigacha teng summadagi tovar (ish va xizmat)larni xarid qilishda buyurtmachi tomonidan tashkil etiladigan maxsus tanlov komissiya qaroriga ko'ra, eng yaxshi takliflarni tanlab olish asosida amalga oshiriladi.

Tanlov komissiya tomonidan takliflar quyidagicha tanlanadi:

-xarid qilinadigan tovar (ish va xizmat)larning tavsifnomasini, sonini, bajarish muddatini va tovarni yetkazib berish joyini ko'rsatgan holda takliflarni yetkazib beruvchilarga yoki pudratchilarga yuborish;

-yetkazib beruvchilar yoki pudratchilar e'lon qilgan narxlar va tavsifnomalarni o'zaro taqqoslash.

Maxsus tanlov komissiya buyurtmachining rahbar xodimlari va vakolatli mutaxassislaridan kamida 3 nafardan iborat bo'lgan tarkibda tuziladi. Agar majlisda tanlov komissiyasi a'zolarining kamida 3/4 qatnashsa, tanlov komissiyasi huquqiy vakolatli hisoblanadi Maxsus komissiyaning qarori protokol bilan rasmiylashtiriladi.

Xom ashyo, materiallar, butlovchi buyumlar va asbob-uskunalar xarid qilish bo'yicha tender komissiyalari tomonidan o'tkaziladigan tanlov savdolarida Davlat xaridi sohasiga tegishli ayrim istisnolar mavjud. Bu istisnolar quyidagilar:

-Davlat xaridlari bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan

tovar (ish va xizmat)larning ayrim turlari davlat xaridlari O‘zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasi tomonidan tashkil etiladigan elektron auksion savdolar orqali ham amalga oshiriladi;

- 1 kontrakt bo‘yicha qiymati ekvivalentda 100 ming AQSH dollarigacha bo‘lgan ro‘yxati Davlat xaridlari bo‘yicha Hukumat komissiyasi tomonidan belgilanadigan eng zarur tovarlar (ish va xizmat)lar tadbirkorlik sub’yektlaridan O‘zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasining maxsus axborot portali orqali elektron savdo orqali xarid qilinadi.

Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi tovar xom ashyo birjasining elektron savdolari dinamikasi quyidagi 2.9-jadvalda keltirilgan yillar davomidagi tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, bu jarayon ijobiy o‘rish aylanmasiga ega bo‘lmoqda.

2.9-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi tovar xomashyo birjasining faoliyat yakunlari to‘g‘risida ma‘lumot³⁰

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	2014-yil	2015-yil	2016-yil
Bitimlar hajmi,jami	mlrd.so‘m	8870,2	8831,8	12066,4
Davlat xaridi bo‘yicha tuzilgan bitimlarning hajmi	mlrd.so‘m	470,5	497,1	596,1
Tuzilgan bitimlarning umumiy boshlang‘ich bahosi	mlrd.so‘m	587,8	637	729,1
Budjet mablag‘larining tejalishi	mlrd.so‘m	117,3	139,9	133,0
Tovar(ish, xizmatni) yetkazib beruvchilar soni	nafar	33674	37707	43781

Albatta Tender komissiya tomonidan investitsiya loyihalari bo‘yicha o‘tkazilgan tender savdolari samaradorligi nafaqat investitsiya loyihasining balki, tender hujjatlarining ekapertizasiga hamda monitoringiga bog‘liqligi ta’kidlash o‘rinlidir.

Tender hujjatlarini ekspertizasi - tender savdolarini o‘tkazishning maqsadga muvofiqligi hamda uning metodlari va usullarining asoslanganligini aniqlash, tanlov savdolarini tashkil etish, tanlov savdolarini o‘tkazish shartlari va tartibotiga rioya qilinganligini aniqlashdir.

Ekspertizadan o‘tkazish uchun quyidagi tender hujjatlari taqdim etiladi:

³⁰O‘zbekiston Respublikasi tovar xomashyo birjasi ma‘lumotlari asosida tayyorlandi // <http://uzex.uz>.

- tender savdolari predmeti va tashkilotchisi to'g'risidagi ma'lumotlar;
- tender hujjatlari;
- tender komissiyasini tayinlash va uning tarkibi to'g'risidagi buyruq;
- moliyaviy resurslarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar (kredit shartnomasi, bank ma'lumotnomasi, qurilishlarning aniq manzilli ro'yxati, davlat boshqaruv organi qarori va boshqalar);
- import tovar (ish va xizmat)larni xarid qilishda buyurtmachi tanlov hujjatlari tarkibida narxlar kon'yunkturasi bo'yicha xulosani taqdim etadi.

Tender hujjatlari monitoring - tender savdolarini tashkil etish va o'tkazish, shartnoma tuzish, loyihani amalga oshirishda tender savdolari shartlarining bajarilishi, ishlarni bajarish va moliyalashtirish jadvallarining ijrosi, qurilishi tugallangan ob'yektni o'z vaqtida foydalanishga topshirish kabi ishlarni belgilangan tartibda bajarilishini kuzatib boradi.

Monitoring tomonlarning tender savdolari shartlarini bajarishi yuzasidan har oyda tahlili amalga oshiriladi.

Monitoring natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalari bo'yicha idoralararo tender komissiyasi tomonidan 2016-yilda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hamda yangi ob'yektlarni qurish maqsadi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kreditlar hisobidan qiymati 0,7 mlrd. dollar bo'lgan 32 ta hamda korxonalarining o'z mablag'lari hisobidan 5199,1 mlrd. so'm bo'lgan 192 ta yirik investitsiya loyihasi bo'yicha tender savdolari o'tkazildi. Umuman olganda (2.10-jadval) ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, davlat investitsiya dasturiga kiritilgan markazlashmagan manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalari doirasida tashkil etilgan tender savdolarida idoralararo tender komissiyalariga nisbatan tender komissiyalari tomonidan tashkil etilgan tender savdolarini kam tashkil etilishini kuzatish mumkin. Lekin shunga qaramay o'tgan yillar davomida barcha loyihalar tender komissiyalar tomonidan tender savdolari tashkil etilganligini keltirib o'tish mumkin. Chunki Idoralararo tender komissiyasi 2016-yildan tashkil etila boshlangan.

Tender savdolarining savdo predmetiga ko'ra, yana bir turi, bu xizmat

ko'rsatish uchun tashkil etiladigan tanlov savdolari hisoblanadi. Xizmatlar ko'rsatish uchun tanlov savdolari - texnik-iqtisodiy, ekologik va turli ekspertiza, loyiha ishlari, qurilish loyihalari, ishlarni sifatini nazorat etish, ma'lum tadqiqotlarni amalga oshirish kabilar uchun injener, yuridik, moliya-iqtisodiy va boshqa xizmatlar ko'rsatish uchun buyurtmachi va maslahatchilar ishtirokida tashkil etiladi.

2.10-jadval.

Tender komissiyasi tomonidan markazlashmagan manbalar hisobidan 2016-yilda o'tkazilgan tender savdolari tahlili³¹

Tender komissiyasi sohalar nomi	Loyihalar soni		Loyiha qiymati	
	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya	Korxona mablag'i	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya (mln. AQSH dol.)	Korxona mablag'i (mlrd. so'm)
Jami:	70	322	13457,92	18109,4
Tender komissiyasi tomonidan jami:	32	192	806,5	5199,1
Geologiya, yoqilg'i-energetika majmuasi, kimyo, neft-kimyo va metallurgiya sanoati	6	37	8,63	278,0
Mashinasozlik, avtomobilsozlik va elektr sanoati, mahsulotlarni standartlashtirish	9	19	15,95	64,1
Kommunal soha, transport, kapital qurilish va qurilish sanoati	1	20	1,0	108,9
Qishloq va suv xo'jaligi, iste'mol va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash	5	92	8,6	200,5
Sog'liqni saqlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish	11	23	17,5	95,0
Ta'lim, madaniyat va sport sohasi	-	1	-	4,1
Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyalar	-	-	-	-

Bugungi kunda mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasida tender savdolari yo'lovchilarni tashish sohasida ochiq tenderlar shaklida amalga oshirilmoqda. Bu tenderlarni tashkil etishdan maqsad, aholiga xizmat ko'rsatish madaniyati va sifatini yaxshilash, yo'lovchi tashish transportida bozor munosabati qaror topishi

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining investitsiya dasturi to'g'risida"gi PP-2458-sonli Qarori asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

uchun shart-sharoit yaratish hisoblanadi.

Ayni paytda O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'ra, mamlakat yalpi ichki mahsulotining yarmi xizmat ko'rsatish sohasiga tog'ri kelishini (2.11-jadval.) keltirib o'tish mumkin. Shu sababli xizmat ko'rsatish uchun tashkil etiladigan tanlov savdolarini tahlil qilish muhim hisoblanadi.

2.11-jadval.

O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari³²

Ko'rsatkichlar	2014-yil	2015-yil	2016-yil
YaIM	144867,9	171369,0	199325,1
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	33715,3	40737,3	49476,8
Qurilish ishlari	19779,3	25329,1	29265,8
Yuk tashish, mln. tonna	1455,8	1534,0	1603,6
Yuk aylanmasi mln. tonna km.	86474,6	88868,7	91172,6
Yo'lovchi tashish mln. kishi	7321,3	7589,4	7875,0
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	100095,7	105795,7	110456,1
Xizmatlar, jami	88901,4	89326,3	90991,7

Xizmat ko'rsatish sohasida raqobat muhitini yaratish, yo'lovchilarni yuqori sifatli tashish va xizmat ko'rsatishning eng qulay sharoitlarini aks ettiruvchi eng foydali takliflarni aniqlash komissiyasi tomonidan ochiq tenderlar tashkil etilishi nazarda tutilgan.

Komissiya majlislari zaruratga qarab, lekin yilning har bir chorakda kamida bir marta o'tkaziladi. Komissiya majlisi unda Komissiya a'zolarining kamida 75 foizi qatnashganda qonuniy huquqqa ega bo'ladi.

- Komissiyasi tomonidan ochiq tenderlarni tashkil etishni o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda tender g'oliblari balli tizimda ya'ni, taklif etilayotgan yo'l haqqi tariflar darajasi, transport vositalari rusumi, ishlab chiqarilgan yili;umumiy sig'imi kabi omillarni e'tiborga olib baholanadi.

Investitsiya loyihalari doirasida xizmatlar ko'rsatish uchun tender savdolari g'olibi umumlashtirilgan ballar tizimida aniqlanadi, chunki bu savdo predmeti bo'yicha tender savdolarida eng muhimi loyihaning sifati hisoblanadi.

³²O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi // <https://www.stat.uz>.

II bob bo'yicha xulosa

Tender savdolarida g'olibni aniqlash ikki xil usulda amalga oshiriladi - baho asosida tanlash (inglizchada, cost based selection - CBS) va sifat asosida tanlash (inglizchada, quality based selection - QBS). Savdo natijalarini umumlashtirishda tender tashkilotchilari, ushbu ikki usulni birgalikda qo'llash orqali xulosa chiqaradi. Bunda investitsiya loyihalari doirasida tovarlar yetkazib berish taklifini baholashda baho va sifat omillarining nisbati, xizmatlar ko'rsatishdagi ushbu omillar nisbatini baholashdan tubdan farq qiladi.

Investitsiya loyihalari bo'yicha tovarlar va bajariladigan ishlar uchun tashkil etiladigan tender savdolarida eng muhim omil baho omili bo'lsa xizmatlar ko'rsatish uchun tashkil etiladigan tender savdolarida eng muhimi bo'lib sifat omili hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalari bo'yicha idoralararo tender komissiyasi tomonidan 2016-yilda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hamda yangi ob'yektlarni qurish maqsadi markazlashgan manbalar hisobidan qiymati 5.6 mlrd. dollar bo'lgan 66 ta yirik investitsiya loyihasi bo'yicha tender savdolari o'tkazilgan bo'lsa tender komissiyalari tomonidan qiymati 1,2 mlrd. dollar bo'lgan 64 ta yirik investitsiya loyihasi bo'yicha tender savdolari o'tkazilgan. Buning natijasida mamlaktimizda 988 ta yangi ishchi o'rni tender komissiyasi tomonidan 4984 ta yangi ishchi o'rni esa Idoralararo tender komissiyasi tomonidan yaratilishi taminlangan.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalari bo'yicha idoralararo tender komissiyasi tomonidan 2016-yilda ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hamda yangi ob'yektlarni qurish maqsadi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kreditlar hisobidan qiymati 4,7 mlrd. dollar bo'lgan 38 ta hamda korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan 18109 mlrd. so'm bo'lgan 322 ta yirik investitsiya loyihasi bo'yicha tender savdolari o'tkazilgan. Tender komissiyasi tomonidan esa qiymati 0,7 mlrd. dollar bo'lgan 32 ta hamda korxonalarning o'z mablag'lari hisobidan 5199,1 mlrd. so'm bo'lgan 192 ta yirik investitsiya loyihasi bo'yicha tender savdolari o'tkazilgan.

III BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARI BO'YICHA TENDERLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. Investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarni tashkil etish va boshqarishning xorij tajribasi va uni O'zbekistonda qo'llash masalalari

O'zbekistonda shakllantirilayotgan investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolari mexanizmi, investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini xorij tajribasidan farq qiladi. Shu sababli investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolari tashkil etishning samarali mexanizmlarini joriy etishda, uni tashkil etish bo'yicha rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, bu sohada AQSH, Yevropa Ittifoqi, Xalqaro moliya tashkilotlari va boshqa rivojlanayotgan davlatlar amaliyotini o'rganish hamda ularning ijobiy tajribalaridan mamlakatimiz investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolari tizimini shakllantirishda foydalanish muhim ahamiyatga ega.


AQSH hukumati mudofaani ta'minlash, ta'lim, shifoxonalar yo'l qurilishi va boshqa umumjamiyat ehtiyojlari uchun investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini amalga oshiradi. AQSHda shtatlar hukumati va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tovarlar va xizmatlar sotib olish uchun federal hukumatga nisbatan ham ko'proq loyihalarni amalga oshiradi.

Davlat sektori doirasida tender savdolari AQSHning davlat xaridi sohasidagi faoliyatini umumiy muvofiqlashtirish - Federal xarid siyosati boshqarmasi (Office of Federal procurement Policy) tomonidan amalga oshiriladi. Bu organ - dastlab, Budjetni boshqarish boshqarmasida maslahatchi organ sifatida 1974-yilda tashkil etilgan, 1988-yildan hukumatning doimiy faoliyat yurituvchi organi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Federal xarid agentliklari tomonidan amalga oshiriladigan barcha tender savdolari 1984-yilda ishlab chiqilgan davlat xaridi bo'yicha tender savdolarini tartibga soluvchi qoidalar yig'indisi (Federal Acquisition Regulation (FAR)) bilan tartibga solinadi. Unda xaridni tashkil etishning barcha bosqichlari - xaridni

rejalashtirish, davlat xaridini amalga oshirishni tender savdolarini boshqarish va uni tugallashgacha bo'lgan barcha bosqichlar o'z aksini topgan. Federal Acquisition Regulation (FAR) dan ko'zlangan asosiy maqsad - davlat ehtiyoji uchun investitsiya loyihalar doirasida xaridni amalga oshiruvchi barcha federal agentliklar tomonidan yagona xarid siyosatini amalga oshirish va yagona xarid qoidalaridan foydalanishni ta'minlashdan iborat. Federal Acquisition Regulation (FAR)ning missiyasi esa, investitsiya loyihalar bo'yicha xaridni amalga oshirishga bo'lgan vaqt cheklanganligini inobatga olgan va davlat buyurtmachilarini eng optimal baho va sifat munosabatini ta'minlagan holda tovar (xizmat)lar xarid qilishdan iborat.

AQSHda markazlashgan manbalar hisobiga moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalari doirasida tender savdolari bir necha shakllarda amalga oshiriladi (3.1-rasm.).



3.1-rasm. AQSHda investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolari turlari³³

Boshqa mamlakatlar amaliyotida kuzatilmaydigan soddalashtirilgan tartibda amalga oshirish usuli sun'iy ravishda, investitsiya loyihalar doirasida tovar (ish va xizmat)lar xarid hajmini pasaytirish ya'ni mayda qismlarga ajratishda ya'ni shartnoma summasi katta bo'lmaganda 100 mingdan 5 mln. AQSH dollarigacha qo'llaniladi.

AQSHda investitsiya loyihalar doirasida tovar (ish va xizmat)lar xaridi


³³Сорокин В. Ю. "Развитие системы международных тендеров в Российской Федерации" Диссертация на соискание ученой степени кандидат экономических наук Москва 2012 с. 291

sohasiga tegishli bo'lgan barcha qonunchilikni ikki toifaga ajratish mumkin.

Birinchi toifa - umumfederal qonunchilik. Mazkur qonunlar investitsiya loyihalar doirasida tovar, ish va xizmatlar xaridini tashkil etish jarayonini tartibga soladi, federal darajadagi ijroiyy organlar vakolatiga tegishli bo'lgan investitsiya loyihalar doirasida xaridning ayrim turlarini amalga oshirish bo'yicha yuridik me'yorlarni belgilaydi.

Ikkinchi toifa - shartnomalar shakli va ularni amalga oshirish bo'yicha maxsus qonunchilik bo'lib, u investitsiya loyihalar doirasida xarid jarayonlarini axborot bilan ta'minlash va uning natijasi tahlilini amalga oshirishni tartibga soladi.

AQSHda investitsiya loyihalar doirasida xaridini tashkil etish, davlatning funktsiya va vazifalariga amerikacha yondashuvdan kelib chiqib, uchta asosiy tamoyilga asoslanadi (3.2-rasm.).



3.2-rasm. AQSHda investitsiya loyihalar bo'yicha tender savdolarini tashkil etish tamoyillari³⁴

AQSHda investitsiya loyihalar doirasida xaridini tashkil etish haqqoniylik asosida tender savdosida ishtirok etayotgan pudratchilar uchun bir xil raqobat muhitini shakllantirishni nazarda tutsa ochiqlik asosida korrupsiyaga qarshi kurashishni, tejamkorlik va samaralilik asosida esa tovar (xizmat)larni talab etilgan sifatda hamda arzon baholarda, xarid etish xarajatlarini minimallashtirishni

³⁴Сорокин В. Ю. "Развитие системы международных тендеров в Российской Федерации" Диссертация на соискание ученой степени кандидат экономических наук Москва 2012 г., с.291

ta'minlash maqsad qilinadi.

Endi Yevropa ittifoqi tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, unda ishtirokchi mamlakatlarning ko'pligi, investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)lar xaridi miqdorining darajasi turli ekanligi, rivojlanish darajasi va davlat sektorining hajmi tender savdolarini tashkil etish va boshqarishda maxsus yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda Yevropa ittifoqi mamlakatlarida investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)lar xaridini tartibga solish, uning hajmidan va boshqa shartlardan kelib chiqib, 3 darajada tartibga solinadi: milliy, xalqaro va Yevropa ittifoqi qonunchilik asosida.

Yevropa ittifoqi investitsiya loyihalari doirasida tender savdolariga nafaqat arzon va sifatli tovar (ish va xizmat)lar sotib olish balki davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshiruvchi muhim quroli sifatida qaraydi. Xususan, Yevropa ittifoqining "Ijtimoiy siyosatni yuritishda davlat xarididan foydalanish to'g'risida"gi hujjatida³⁵, davlat va jamoat ehtiyojlari uchun mahsulotlarni yetkazib berish shartnomalarini tuzishda ijtimoiy maqsadlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakligi aytib o'tilgan.

Amaldagi qonunchilik doirasida ijtimoiy dasturlarni va ekologik siyosatni amalga oshirilishi alohida qayd etilgan. Shuningdek, tender savdolari asosida tovar (ish va xizmat)lar xaridini amalga oshirishda ijtimoiy yondashuvni hamda ekologik vazifalarni amalga oshirishda bir qancha omillarga e'tibor qaratiladi (3.1-jadval.).

Yevropa ittifoqi yagona tovar, ish (xizmat)lar xarid tizimini shakllantirishda AQSH tajribasidan foydalanilgan. Yevropa ittifoqi davlatlarida investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)lar xaridini tashkil etish bo'yicha yagona umummilliy qonun shakllantirilgan va uning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- minimal xarajat evaziga tovar (ish va xizmat)lar xaridni optimallashtirish;
- Yevropa ittifoqi va unga a'zo mamlakatlar milliy bozorlarida shartnomalar tuzishda teng raqobat muhitini ta'minlash;
- shaffoflik talablari bajarilishini ta'minlash;

³⁵Yevropa ittifoqi "Ijtimoiy siyosatni yuritishda davlat xarididan foydalanish to'g'risida"gi Qarori Yevropa ittifoqi rasmiy veb sayti ma'lumoti/<http://www.europa.eu>

- haqqoniy va ochiq biznes amalga oshirishiga ko‘maklashish;
- kichik biznes va tadbirkorlik vakillari davlat buyurtmalarini olishlariga ko‘maklashish.

3.1-jadval.

Yevropa ittifoqining investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarining tashkil etish xususiyatlari³⁶

№	Ijtimoiy sohada	Ekologik sohada
1.	Ish sharoitlari talablarini o'z ichiga oluvchi shartnoma shartlarini ishlab chiqish	Zaruriy texnik xususiyatlarni ishlab chiqish
2.	Tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchini to'g'ri tanlash	Ma'lum xom ashyo va materiallardan foydalanish
3.	Qonunchilik bo'yicha ijtimoiy sohaga to'g'ri kelmaydigan tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchilarni mol yetkazib beruvchilar ro'yxatidan chiqarish	Maxsus texnologik jarayonlardan foydalanish
4.	Tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchilarni tanlashda qo'shimcha ijtimoiy mezonlardan foydalanish	Mos ravishda, tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchilarni tanlash
5.	Ijtimoiy talablarni inobatga olgan holda, eng yaxshi taklifni baholash uchun tavsifnomalar berish	Ekologik talablarni inobatga olgan holda, eng yaxshi taklifni baholash uchun tavsifnomalar berish

Yevropa ittifoqi mamlakatlarida tovar (ish va xizmat)lar xaridi ma'lumotlari "Yevropa ittifoqining rasmiy jurnali"da chop etilishi zarur. Ushbu nashrning qog'ozli varianti 1998-yilda bekor etilib, endilikda uning rasmiy elektron ma'lumotlar bazasi "Kundalik elektron tender" (Tender Electronics Daily (TED)) deb yuritiladi. Tender Electronics Daily (TED)ning ma'lumotlar bazasini internetdan olish mumkin va u kompakt-disklarda ham mavjud. U har kuni 500-750 tacha yangi e'lonlar bilan to'ldirilib, muntazam yangilanib boriladi hamda rasmiylashtirilgan shartnomalar haqida ma'lumotlarni ham saqlaydi. Shartnomalar va mol yetkazib beruvchilar haqida yanada to'liqroq ma'lumotlar mamlakatlarning milliy axborot tizimlarida mavjud, bundan tashqari, tovar (ish va xizmat)lar xaridi ishtirokchilariga axborot va maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi 200 dan ortiq axborot markazlari ham faoliyat yuritmoqda.


Investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)lar xaridini tashkil etish

³⁶Сорокин В. Ю. "Развитие системы международных тендеров в Российской Федерации" Диссертация на соискание ученой степени кандидат экономических наук Москва 2012 г., с. 291

bo'yicha jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, tovar (xizmat)larni yirik hajmda xarid etishning eng samarali shakli bu ochiq tanlovlar (tender)ni o'tkazishdir.

BMT va Xalqaro Savdo tashkiloti(World Trade Organization (WTO)) o'z a'zolariga investitsiya loyihalari doirasida tovar, ish va xizmatlar xaridini ochiq tanlovlar (tender) o'tkazish orqali amalga oshirishni tavsiya etadilar. Xalqaro savdo bo'yicha BMTning Komissiyasi (YUNSITRAL) tender savdolarini amalga oshirish bo'yicha asos va namuna bo'lishi mumkin bo'lgan "Tovar (xizmat)lar xaridi to'g'risida namunaviy qonun"ni taklif etadi. Xalqaro Savdo tashkiloti(WTO) mamlakatlarda tenderni tashkil etish bo'yicha talablar, a'zo mamlakatlar bilan ko'p tomonli shartnomalarda o'z aksini topgan.

Yevropa Ittifoqi tovar (ish va xizmat)lar xarid tizimi amaliyotida quyidagi 4 ta asosiy tamoyillarga amal qilinadi (3.3-rasm.).



3.3-rasm. Yevropa Ittifoqi tovar (ish va xizmat)lar tender asosida xarid tizimi asosiy tamoyillari³⁷

Yevropa Ittifoqi tender savdolarini tashkil etish amaliyotida shaffoflik (transparency) tamoyili asosida tovar (ish va xizmat)lar xaridi haqidagi ma'lumotning ochiqligi va uni olish imkoniyati, hisob berish va shartlarga amal qilishlik (Accountability and due process) tamoyilida davlat va jamoat nazoratini ta'minlagan holda tovar, ish va xizmatlar xaridini tashkil etish shartlariga to'liq rioya etish, ochiq va samarali raqobat (Open and effective competition) tamoyili

³⁷Сорокин В. Ю. "Развитие системы международных тендеров в Российской Федерации" Диссертация на соискание ученой степени кандидат экономических наук Москва 2012 г., с.291

diskriminatsiya (kamsitish)ga yo‘l qo‘ymaslik nazarda tutilsa, haqqoniylik (Fairness) tamoyilida esa, tovar (ish va xizmat)lar xaridining barcha ishtirokchilari uchun teng imkoniyatlar berish asosiy maqsad hisoblanadi.

Mazkur tamoyillar qator mamlakatlarning qonunchiligi asoslarini tashkil etadi va xalqaro hujjatlarda, jumladan, WTO ning tovar (ish va xizmat)lar xaridi bo‘yicha ko‘ptomonlama shartnomalarida ham ushbu tamoyillarga amal qilish qat’iy belgilab qo‘yilgan.

Investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)lar xaridini tashkil etishda ishlatiladigan xaridning ochiq va yopiq bir va ikki bosqichli tanlovlari, xaridning yagona manbasidan baholarni so‘rash usulidan tashqari, ba’zi mamlakatlarda keng qo‘llaniladigan taklif so‘rovnomasi va raqobatli muzokaralar usullari ham mavjud.

Taklif so‘rovnomalari eng kamida 3 tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchiga jo‘natiladi. Buyurtmachi (sotib oluvchi tashkilot) takliflarni baholash mezonlarini, uning nisbiy mohiyati va baholashda qanday qo‘llanilishini belgilaydi. Ushbu mezonlar tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchining boshqaruv va texnik talablarga javob berishi bo‘yicha, taqdim etilgan taklif orqali ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish mumkinligi nuqtai nazaridan, shuningdek, taklif etilayotgan baho, ekspluatatsiya, xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash xarajatlarini inobatga olgan holda tuziladi. Bunday hollarda so‘rovnoma yuborish, muzokoralar olib borish yoki buyurtmachi, taqdim etilgan taklifni qayta ko‘rib chiqishga ruxsat berishi mumkin. Muzokoralar sir saqlanish sharti bilan olib boriladi va unda ishtirok etish imkoniyati, takliflari rad etilmagan barcha talabgorlarga beriladi. Shundan so‘ng buyurtmachi tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchilar oxirgi takliflarini taqdim etishi lozim bo‘lgan muddatni belgilaydi va taqdim etilgan eng yaxshi taklif qabul qilinadi.

Yevropa ittifoqining ayrim mamlakatlarida tovar (ish va xizmat)lar xaridini tashkil etishda milliy mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga 5-10% miqdorida imtiyozlar taqdim etiladi. Ayrim hollarda bunday imtiyozlar ancha yuqori ham bo‘lishi mumkin, masalan, Vengriyada bu ko‘rsatkich ma’lum vaqt oralig‘ida 20%ni

tashkil etganligi ham kuzatilgan³⁸.

Ayrim mamlakatlarda yirik investitsiya loyihasining ma'lum qismi, alohida olingan mol yetkazib beruvchilar, xususan, kichik biznes vakillari uchun saqlab qolinadi. Hattoki bu maqsadlarni amalga oshirish uchun yirik buyurtmalar, mayda bo'laklarga bo'lib joylashtirilishi ham mumkin.

Tovar (xizmat)lar xaridi uchun xorijiy mol yetkazib beruvchilarga o'rnatilgan maxsus taqiqlar bilan birga, ancha ko'zga ko'rinmaydigan turdagi taqiqlar - boj poshlinalari va tarifli cheklovlar (standart, guvohnoma, litsenziya va boshqalar), ayrim hollarda to'g'ridan-to'g'ri taqiqlar o'rnatiladi. Bu amaliyot - xalqaro tashkilotlar, birinchi navbatda, WTOning faoliyati natijasida kamaymoqda, ammo undan tez orada butkul voz kechish qiyin kechmoqda.

Asosiy faoliyat maqsadi jahonning turli mamlakatlarida iqtisodiyotning ma'lum sohalarini rivojlantirish hisoblanadigan yirik notijorat tashkilotlar - Xalqaro moliya institutlarining jamiyat mablag'lari hisobidan tovar (ish va xizmat)lar xaridini amalga oshirish tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro moliya institutlar yirik miqdordagi mablag'larni to'playdi (badal yig'imi sifatida ishtirokchilardan olingan, shuningdek, tijorat asosida kredit taqdim etish orqali to'plangan) va yirik tijorat hamda notijorat tushdagi loyihalarni amalga oshiradi.

Loyihalar Xalqaro moliya institutlar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan ekan, ushbu mablag'lardan foydalanish hamda tovar, ish va xizmatlar xaridini amalga oshirish tartibi Xalqaro moliya institutlar tomonidan o'rnatiladi. Xalqaro moliya institutlari tomonidan kredit resurslarini taqdim etish shartnomalarida ushbu qoida amal qiladi. Chunki bunday shartnomalar xalqaro maqomga ega, investitsiya loyihalar doirasida tovar (ish va xizmat)lar xaridini amalga oshirish nafaqat milliy qoidalar emas, balki Xalqaro moliya institutlar qoidalari amal qiladi.

Eng mashhur Xalqaro moliya institutlarlar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:


- Jahon banki, o'z ichiga Xalqaro rivojlanish va taraqqiyot bankini, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasini va boshqa qator tuzilmalarni o'z ichiga oladi;

³⁸. Yevropa ittifoqi rasmiy veb sayti ma'lumoti asosida tayyorlandi // <http://www.europa.eu>.

- Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki;
- Osiyo qit'asida ro'yxatdan o'tgan mol yetkazib beruvchilar uchun Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki;
- turli xil fondlar (Know-How Foundation, USAID) va boshqa tashkilotlar.

Har qanday loyihani amalga oshirishda erkin bozordan xarid qilinadigan tovar (xizmat)larga ehtiyoj seziladi. Masalan, ofis ishini tashkiletish uchun kompyuterga, shahar suv ta'minoti tizimini modernizatsiya qilish uchun yangi asoslarga, qurilish ishida injener xizmatiga ehtiyoj seziladi.

Jahon banki tomonidan moliyalashtiriladigan tovar (xizmat)lar xaridini tender savdolari asosida amalga oshirish bir necha usullarni nazarda tutadi (3.4-rasm.).



3.4-rasm. Jahon banki tomonidan moliyalashtiriladigan investitsiya loyihalarining tender savdosi turlari³⁹

Qo'llanmada har bir jarayonni amalga oshirish muddatlari aniq ko'rsatilgan, har qanday vaziyatlarda harakatlar ketma-ketligi, tomonlarning huquq va majburiyatlari, shuningdek, xaridning murakkab turi sifatida, xalqaro tanlov savdolarini amalga oshirish aniq yoritilgan.

Xalqaro moliya institutlar tomonidan qo'llaniladigan usullar, shuningdek, loyihalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan qoidalar, jarayonlar ko'p jihatdan yuqorida ko'rib o'tilgan YUNSITRALning "Tovarlar va xizmatlar xaridi to'g'risida"gi namunaviy qonuni bilan o'xshashlikka ega. Shunday qilib, xalqaro hamjamiyat yetkazib berilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun jamiyat

³⁹ Jahon bankining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi // <http://worldbank.org>.

mablag'larini, soliq to'lovchilar mablag'lari bo'ladimi (rivojlangan mamlakatlarda davlat xaridi uchun) yoki Xalqaro moliya institutlari ishtirokchilarining mablag'larini (Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki loyihalari uchun xarid), uni sarflashda shartnoma tuzishning tanlov texnologiyalaridan foydalanmoqda.

Umuman, raqobat asosida tashkil etilgan xarid sotib olingan tovar (xizmat)larga xarajatlarni qisqartirishga, xarajatlarni amalga oshirish samarasini ta'minlaydi va davlat mablag'lari hisobidan buyurtmalarni joylashtirishda korruptsiya darajasini tushirishga yordam beradi.

3.2. Investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish yo'llari

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarish, loyihalarning ma'lum ilmiy-tadqiqot, amaliy izlanishlar va marketing tadqiqotlari natijasida tuzilishi hamda ilmiy-texnik, moliyaviy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-ekologik jihatdan asoslanishi zarurdir. Izlanishlar natijasi sifatida aniq g'oya va loyihaning kontsepsiyasi yaratiladi va ishlab chiqiladi. G'oya esa, real va aniq davr bilan chegaralanadi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarishda ularning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, ob'yektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek tegishli boshqaruv qarorlari va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qaralishi mumkin.

Investitsiya loyihasi o'z maqsadi, yo'nalishi, amal qilish sohasi, muddati va chegarasiga ega bo'lgan alohida faoliyat turi hisoblanadi. U tashkiliy, huquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jihatdan to'liq va mukammal hisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik hujjat hisoblanadi.

Tender savdolarini tashkil etish va boshqarishda investitsiya loyihasi g'oyasining shakllanishi muhim rol o'ynaydi. Uning murakkab jarayonlar asosida

yaratilishida turli tadqiqotlar va tahlil etish ishlarini olib boruvchi mutaxassislarning asosiy o'rin egallashlarini alohida e'tiborga olmoq zarur. Investitsiya loyihasining o'ziga xos xususiyati uning amalga oshirilishi moliyalashtirishning turli shakllariga mos tushishi bilan izohlanadi. Bunda investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun turli manbalardan mablag'larni jalb etish mumkinligi uning qulayligini, foydaliligini, samaradorligini va afzalligini oshiradi.

Umuman olganda, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarish jarayoni, investitsiya loyihasi investitsion tadbirkorlik va tashabbusning , natijasi sifatida yaratilgan investitsion hujjat bo'lib, investitsiyalar bilan ta'minlangan har qanday tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Ya'ni u cheklangan muddat va vaqt mobaynida foyda olish yoki ijtimoiy samaraga erishish maqsadidagi bir-biri bilan bog'liq, bir-biri bilan aloqadorlikdagi murakkab tadbirlar majmuasi hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish investitsiya fazasining investitsiya oldi bosqichida amalga oshirilganligi sababli mazkur bosqichda kelgusida investitsiya loyihasini amalga oshirish jarayonida unga ta'sir etuvchi turli riskli omillarni aniqlash va baholash imkoniyati yuzaga keladi. Shunday vaziyatlar bo'ladiki, amalda investitsion qarorlarni qabul qilishda jiddiy murakkabliklarga duch kelinishi hollari kuzatilib, mazkur holatlarda investorlar uchun investitsiyalashning muqobil va samarali variantlarini izlab topish va u bo'yicha qarorlarni qabul qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Bu esa, investitsiya loyihalarining muqobil variantlarini ishlab chiqish va ularni o'zaro qiyosiy tahlil qilish zarurligini va ahamiyatini keltirib chiqaradi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarish tadbirkorlik faoliyatining bir muncha qiyin va yuqori riskli ko'rinishini ifoda etib, alohida oddiy emas, balki alohida bilim, malaka va tajribani talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida XXI asrning oxirgi 10 yilligi investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarish malakaviy faoliyatning alohida bir ko'rinishiga aylandi. Ko'pgina sanoati

rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining davlat va xususiy sektorlarida investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarish bo'yicha yetarlicha tajriba to'plangan.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarish tomonlar manfaatlarining nomoyon bo'lishini aniqlash bilan amalga oshiriladi. Garchi xar bir ishtirokchi o'zicha va turlicha baxolash ishini olib borsada, biroq kelgusidagi foydadan manfaatdorlik barcha ishtirokchi uchun umumiy xisoblanadi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini boshqarish har qanday investitsiya loyihasining hayotga tadbqiq etilishi uning jalb etuvchanligi (jozibadorligi) ga asoslanadi. Loyihalar samaradorligini baholash usullari esa, uning jalb etuvchanligini ko'rsatib berish uchun qo'llaniladi. Loyihaming jalb etuvchanligini baholash usullari ikki guruhga: diskontlash kontseptsiyasini qo'llashga asoslangan va diskontlash kontseptsiyasini qo'llashni nazarda tutmaydigan usullarga bo'linishi bilan xususiyatlanadi. Ushbu barcha usullar orqali loyihaming absalyut jalb etuvchanligini aniqlash imkoni yaratiladi.

Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda loyihalar bo'yicha qaror qabul qilish yetarli darajada ma'sulyatli vazifa hisoblanadi. Unga bir qator omillar ta'sir etadi:

- birinchidan, investitsiya xarajatlarini bir yo'la yoki uzoq davrlar bo'yicha bo'lib-bo'lib amalga oshirilishi mumkin;

- ikkinchidan, investitsiya loyihasini amalga oshirishdan boshlab, to natijaga erishishgacha bo'lgan jarayon ham uzoq hisoblanadi;

- uchinchidan, uzoq muddat talab qilinganligi sababli investitsiyalarni baholashda risk va noaniqliklar bo'lish ehtimoli kattaroq bo'ladi.

Xuddi shu omillar qaror qabul qilishga ta'sir qilganligi sababli investitsiya loyihalarini baholashning maxsus usullari ishlab chiqilgan. Bu usullar orqali xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan holda investitsiya qarorlarini qabul qilish mumkin.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini boshqarishda xalqaro ko'rsatkichlar sifatida umumiy andoza qilib tan olingan tahlil qilish ko'rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini o'tkazishda tijorat asosida doimiy ravishda faoliyat yuritadigan investitsion loyihalar ko'rgazmasini (o'ziga xos birja) tashkil etish foydadan xoli emas. Ushbu ko'rgazma o'z navbatida, respublikaning barcha mintaqalarida o'z bo'lim va filiallariga ega bo'lishi mumkin.

Investitsiya loyihasi aniqlanishiga ko'ra, analitik ishonch bilan prognozlashi mumkin bo'lmagan kelajakka bog'liqdir. Shu sababli, moliyaviy tahlil va baholash ishlari risk va noaniqlikni hisobga olgan holda olib borilishi lozim. Risk o'tgan davrdagi ma'lumotlar asosida turlicha oqibatlar bilan bog'liq ehtimolliklar baholanishi mumkin bo'lgan xollarda vujudga keladi. Noaniqlik esa, yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlar ehtimolligini o'tgan davrlarda tegishli ma'lumotlarning bo'lmasligi sababli sub'yektiv ravishda aniqlashga to'g'ri kelgan hollarda mavjud bo'ladi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolari tender komissiyasi tomonidan belgilangan muddat mobaynida o'tkaziladi. Takliflarni baholash tender komissiyasi tomonidan belgilangan har bir baholash mezonini bo'yicha ball orqali amalga oshiriladi.


Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarishda yana bir jihat loyiha mahsuloti uchun zaruriy xom ashyoni qidirayotganda, ishlab chiqarishni davomiyligini ta'minlash uchun asosan mahalliy xom ashyodan foydalanishga harakat qilish zarur. Chunki import qilinadigan xom ashyo uchun ham valyuta kerak. Korxonada esa har xil vaziyat bo'lishi mumkin. Agar xom ashyo ichki bozorda ham topilsa, bu muammoni hal qilish nisbatan yengil kechadi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirishning yana bir yo'nalishi bu uning huquqiy asosi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda investitsiya loyihalarini amalga

oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarishni huquqiy asoslari tahlili shuni ko'rsatdiki, investitsiya loyihalari doirasida xizmatlar ko'rsatish uchun tashkil etiladigan tender savdolarining huquqiy asosi faqatgina transport tashishni tashkil etish sohasidagina mavjud. Shu sababli aynan xizmat ko'rsatish sohasida mavjud qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish zarur. Qolaversa, investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarishda mavjud qonunchilik bazasini investitsiya loyihalari bo'yicha tenderlarni savdo predmetiga ko'ra, yagona me'yoriy-huquqiy bazasini yaratish zarur.

Investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolari sohasidagi korrupsiya uzoq davrlardan beri mavjud bo'lgan va milliy chegara bilmaydigan muammolardan biri hisoblanadi. Korrupsiyaga qarshi kurashga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar jahon mamlakatlari bo'ylab davlat va nodavlat dasturlari asosida amalga oshirilmoqda, ammo ushbu tadbirlardan hali sezilarli natijalarga erishilayotgani yo'q.

Investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolari sohasida korrupsiyaning mavjudligi faqatgina moliyaviy zarar bilan chegaralanmaydi tender savdolari jarayonida mavjud korrupsiyadan, davlat va jamiyat ko'radigan zararni shartli ravishda 4 turga bo'linadi (3.5-rasm.).



3.5-rasm. Tender savdolari jarayonida mavjud korrupsiyadan davlat va jamiyat ko'radigan zarar turlari⁴⁰

Moliyaviy yo'qotish - shartnomalarni davlat va jamiyat uchun moliyaviy zararli shartlarda tuzish. Buni sotib olinayotgan tovarlar narxini amaldagi bozor

⁴⁰ Rustamov B.B. "Davlat xaridini tashkil etish va uni takomillashtirish" Magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. 88 bet.


bahosidan yuqori narxlarda sotib olish, davlat shartnomlarida to'lovlarni kechiktirish emas, balki oldindan to'lovni amalga oshirish shartlarini kiritish va boshqa ko'rinishlarda ko'rish mumkin.

Miqdoriy yo'qotish - yetkazib berilayotgan tovar (xizmat)lar hajmini keragidan ortiq yoki kam miqdorda bo'lishi tovar (xizmat)larni mas'ul amaldorlarning shaxsiy maqsadlari uchun xarid etish va boshqa.

Sifat yo'qotish - sifatsiz tovarlar yetkazib berish va xizmatlar bajarish kabi zaruriy texnik talablarni buzgan holda shartnomalarni tuzish, kafolat muddati va kafolat muddatidan keyingi shartlarni bajarilishining noqulay shartlari; bajariladigan ish (xizmat)lar sifatini tekshirish uchun yetarli nazoratning talab etilmasligi va hokozolar.

Siyosiy yo'qotish - mamlakatda investitsion muhitning yomonlashuvi, fuqarolar tomonidan davlat va davlat tuzilmalariga bo'lgan ishonchning yo'qolishi, mamlakat iqtisodiy-moliyaviy tizimining izdan chiqishi, erkin raqobat tamoyillarining buzilishi va boshqalar.

Investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolari sohasidagi korrupsiyaga qarshi kurash davlat sektorida yoki tijorat sektorida amalga oshirilishidan qat'iy nazar unga kompleks yondashuv bo'lishini talab etadi. Xalqaro amaliyotda mazkur muammo yechimida to'rtta yondashuv mavjud (3.6-rasm.).



3.6-rasm. Tenderlar sohasidagi korrupsiyaga qarshi kurash usullari⁴¹

Psixiologik usul korrupsiyaning birlamchi sababi bo'lgan - xizmatchining

⁴¹ Rustamov B.B. "Davlat xaridini tashkil etish va uni takomillashtirish" Magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. 88 bet.

buyurtmachi hisobidan noqonuniy daromad olishining oldini olishga ta'sir etish imkonini beradi.

Texnik usullar bitim ishtirokchilarini bir-birlari bilan uchrashish imkoniyatini yo'qotib yoki korrupsionerni qo'lga tushib qolish riskini oshiradi, sotib oluvchi bo'linmalar va sotuvchilar o'zaro til biriktirishlarni sezilarli darajada pasaytiradi.

Tartibga soluvchi usullarni qo'llash - korrupsiyani yuzaga kelish riskini pasaytirishga qaratilgan barcha rasmiy ichki qoida va jarayonlarni amal qilish orqali teder savdolarini amalga oshirishni bildiradi.

Jazo chora-tadbirlarini qo'llashdan maqsad tender savdolarini tashkil etishga mas'ul bo'lgan shaxslarning korrupsion faoliyatining "foydasiz" qilib qo'yadigan muhitni shakllantirishga yo'naltirilgandir.


Tender savdolari jarayonlarida korrupsiya darajasini pasaytirishga faqatgina kompleks yondashuv, ya'ni savdoning barcha bosqichlarida uning barcha usullaridan balanslashgan holda foydalanish orqali erishish mumkin. Alohida olingan usullar yoki sohalar bilan chegaralanib qolish orqali faqat qisqa muddatli natijalarga erishish mumkin. Ammo ma'lum vaqt o'tgandan so'ng noqonuniy daromad topishning ko'rinishi va mexanizmi o'zgaradi va nazorat qamrab olmagan sohalarga o'tadi. Natijada, korrupsiya natijasida yo'qotiladigan zararlar oldingi miqyosiga chiqib oladi va hatto uning ko'lami yanada kengayishi ham mumkin.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)lar tender asosida xaridini tashkil etishning yaqin kelajakdagi asosiy istiqbolli yo'nalishi bu - internet va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan elektron xarid hisoblanadi.

Har bir mamlakatda elektron savdolar tizimini tashkil etishni ishlab chiqish bosqichlari, o'sha mamlakatning internet-texnologiyalarining texnik yo'nalishlari rivojini o'zida aks ettiradi. Bundan tashqari, elektron savdolar tizimini ishlab chiqish, tanlovlarni o'tkazishni tayyorlashni yangi texnologik darajaga olib chiqadi. Ba'zi mamlakatlarda shartnomalarni tuzish jarayonlari avvaldan

avtomatlashtirilgan bo‘lishi mumkin va bu investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)lar tender asosida xaridini elektron tashkil etish jarayonini tezlashtiradi. Bu jarayonda tender savdolari ma’lum talablar asosida tashkil etish zarurdir.

Bu o‘rinda, tender asosida tashkil etiladigan savdolarni tayyorlash va o‘tkazishning namunaviy modelini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ushbu model - umumlashtirilgan model hisoblanadi. Har bir tender savdolarni o‘tkazish tartibi o‘zgacha bo‘lishi mumkin, masalan, qo‘shimcha bosqichlarni o‘z ichiga olishi, bir necha tarkibdan tashkil topishi va hakoza bo‘lishi mumkin. Eng muhimi, xorijiy mamlakatlarda tanlov asosida tashkil etiladigan mavjud savdolarni tashkil etish tajribasini umumlashtirish, internet-texnologiyalarni qo‘llash orqali tender savdolarini tashkil etish bu jarayonning samarasini oshiradi (3.7-rasm.).



3.7-rasm. Tender savdolar samaradorligini oshirish talablari⁴²


Tanlov asosida savdolarni tashkil etish tayyorlash va o‘tkazishning asosiy bosqichlari, tanlov hujjatlarini tayyorlashdan tortib, to shartnoma tuzishgacha bo‘lgan bosqichlari aks ettirilgan. Savdoda ishtirok etuvchilar faoliyatining samaradorligini oshirishning eng qulay va sodda yo‘li bu - zamonoviy axborot texnologiyalarini qo‘llash, bu faoliyatni avtomatlashtirish va soddalashtirish hisoblanadi.

⁴² Burxanov U. “Davlat xaridi” - darslik. T.: “PRINTXPRESS”, Toshkent, 2010-yil 160 b.

Dastlab, ushbu jarayonlarni avtomatlashtirish va axborotlashtirish potensial imkoniyatlarini ko‘rib chiqish, so‘ngra - ushbu jarayonlarning turli mamlakatlar kesimida qaysi bosqichdali, mutaxassislar duch kelgan muammolarni quyidagi aniq misollarda keltirish mumkin:

- tanlov hujjatlarini tayyorlash. Birinchi qadam eng oddiy yechim - tanlov hujjatlarini tayyorlash uchun hujjat tayyorlashni avtomatlashtirish tizimini joriy etishdan iborat. Bu bir buyurtmachisi doirasida muammoni hal etsa, bir qancha buyurtmachilar uchun esa, tanlovda ishtirok etish hujjatlarini yagonalashtirish (unifikatsiyalash) samaradorligini oshiradi. Masalan, bu asosiy shablon-maydonlardan tashkil topgan hujjatlar prototipini ishlab chiqish orqali amalga oshirilishi mumkin;

- tanlov haqida e‘lonlarni nashr etish. Bunday turdagi e‘lonlar, asosan, axborot vositalarida xususan, gazeta, jurnal, ixtisoslashtirilgan ilovalarda nashr etiladi. Tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchi ushbu axborotlarga ega bo‘lishlari talab etiladi, ammo tanlov shartlari ularga to‘g‘ri kelishi yoki kelmasligi ma‘lum bo‘lmaydi. Tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchilar uchun to‘g‘ri keladigan tanlovlarni topish jarayonlarini avtomatlashtirishning amaliy ijrosi unchalik yuqori emas.



3.8-rasm. Tanlov asosida tenderlarni tashkil etishning namunaviy modeli⁴³

Ommaviy nashrlar bilan bir vaqtda, tanlov e‘lonlarini internetda joylashtirish, barcha potensial ishtirokchilar uchun axborot olishni ta‘minlovchi

⁴³ Burxanov U. “Davlat xaridi” - darslik. T.: “PRINTXPRESS”, Toshkent, 2010-yil 160 b.

yechim hisoblanadi. Elektron axborotni har qanday tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchi, internetga ulangan holda, tanishib chiqish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchini qiziqtirishi mumkin bo'lgan tanlovlarni maxsus qidiruv dasturlari orqali avtomatik tarzda aniqlash ham mumkin.

Internetda nashr deganda, odatda, davlat buyurtmachisi yoki unga tegishli idora veb-saytining elektron doskasida e'lon berishga aytiladi. Nashr etish joyini markazlashtirish yoki tanlovlar haqidagi e'lonni yagonalashtirish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.

Bunday e'lonlarning prototipini alohida tayyorlash mumkin bo'lib, buyurtmachi faqatgina shablonda qoldirilgan bo'sh maydonlarni to'ldiradi. Agar e'lonlarni, hujjatlarni, tanlov materiallarini tayyorlashga talablar yagona tizimga joylashtirilsa, unda tanlov hujjatlari maydonidagi ma'lumotlardan foydalanib, e'lon matnini avtomatik tarzda shakllantirish mumkin bo'ladi. Buyurtmachi uchun faqat tanlov haqidagi e'lonni nashr etuvchi tugmachani bosish qoladi halos.

Tanlov hujjatlarini taqdim etish. Odatda, tanlov hujjatlarini taqdim etish bir necha mayda bosqichlardan tashkil topgan bo'ladi va ular orasidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- buyurtmachi tomonidan tayyorlangan tanlov hujjatlaridan nusxa ko'paytirish;

- tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchini tanlov hujjatlarini olishi yoki sotib olishi.

Tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchilarni tanlov hujjatlarini sotib olish amaliyoti ko'plab mamlakatlarda hamon qo'llanilib kelmoqda. Bunda hujjatlar to'plamining bahosi, uni tayyorlash va ko'paytirish bilan bog'liq xarajatlar yig'indisidan tashkil topadi. Hujjatlarni tayyorlashning avtomatlashgan tizimini ishlab chiqish orqali yuqoridagi xarajatlarning miqdorini sezilarli pasaytirish, hujjatlar to'plamini internetda joylashtirish orqali ham xarajatlarni kamaytirish mumkin. Agar ushbu ma'lumotlar tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchi uchun e'tiborli bo'lsa, unda u tanlov hujjatlari to'plamini o'ziga yozib

oladi.

Tanlov shartlarini tushuntirish. Bu bosqichda, odatda, ikki xil holat yuzaga keladi: yoki tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchi o'zi uchun tushunarsiz bo'lgan masalalarda buyurtmachiga murojat etadi yoki buyurtmachining o'zi tanlov shartlari (hujjatlar to'plami)dagi ayrim holatlarni tushuntirishni zarur deb topishi mumkin.

Birinchi holatda, tanlov bo'yicha tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchi savollariga buyurtmachi mutaxassisleri tomonidan berilgan tushuntirishlarni elektron xatlar shaklida jo'natish orqali muammoni samarali tarzda hal etish mumkin.

Ikkinchi holatda, tanlovning barcha ishtirokchilarini tezkor tarzda xabardor qilish uchun oydinlik kiritilgan hujjatlar haqida veb-saytda e'lon qilish yoki ariza berganlar va qiziqish bildirganlarga elektron pochta orqali jo'natishi zarur bo'ladi.

Internet tezlik va samaradorlik nuqtai nazaridan, xaridni tashkil etishda mavjud variantlardan ustunlikka egadir.

Tanlov arizalarini yig'ish va ro'yxatdan o'tkazish. Avtomatlashtirish nuqtai nazaridan, bu bosqich murakkab hisoblanadi. "Qog'ozli" savdolarida, tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchi, an'anaviy hujjatlar to'plamini hujjatlarda tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchini aniqlovchi muhr va imzo bilan buyurtmachiga jo'natadi. Ushbu hujjatlar to'plami muhrlangan bo'lib, muddatidan oldin ochilmaydi.

Hujjatlarni internet orqali jo'natishda esa, imzo chekuvchini aniqlashga imkon beruvchi mexanizm ishlab chiqilgan. Bu - elektron imzo turi bo'lib, "raqamli imzo" deb yuritiladi. Raqamli imzo texnologiyasi elektron hujjatni aynan kim imzolaganini aniqlash imkonini beradi. Bunda qalbaki imzo qo'yish imkoniyati umuman mavjud emas va hujjatni faqat kimga jo'natilgan bo'lsa, o'sha odatda tanlov tashkilotchilari o'qishi mumkin bo'ladi. Ushbu holat ko'plab mamlakatlarda raqamli imzoni, qo'l orqali chekilgan imzo bilan bir qatorda, foydalanishga imkon beruvchi qonuniy aktlarning qabul qilinishiga olib keldi.

Konvertlarni ochish va g'olibni aniqlash bosqichda avtomatlashtirish

hamda internet-texnologiyalarini qo'llash orqali optimallashtirish mumkin bo'lgan ikki bosqichni ajratib ko'rsatish mumkin:

- to'g'ri tuzilmagan arizalarni bekor qilish;
- mezonlar bo'yicha topshirilgan takliflarni guruhlash.

Ammo maxsus avtomatlashtirilgan tizimni qo'llashning o'zi ham tanlov hujjatlarini noto'g'ri to'ldirilishining oldini oladi. Takliflarni jadvallar ko'rinishida turli guruhlariga ajratilishi yoki solishtirishni kompyuterda samarali tarzda amalga oshirilishi mumkin.

Bunday holatda, tovar (ish va xizmat)lar buyurtmachisi eksperti oldida tanlovga taqdim etilgan arizalarni tahlil etishga ijodiy tarzda yondashuvni amalga oshirish yetarli bo'ladi hamda barcha vaqt va kuch talab qiluvchi ishlar avtomatlashtirilgan tizim orqali amalga oshiriladi.

Biz yuqorida keltirilgan tanlov natijalarini matbuotda e'lon qilishni alohida bo'lim sifatida ko'rib o'tmadik, ammo shuni ta'kidlash lozimki, natijalarni internetda joylashtirish tezlik bo'yicha "qog'ozli" nashrdan ancha ilg'or usul hisoblanadi.

Shartnoma tuzish bosqichi tanlov asosida savdolarni tashkil etish va o'tkazish doirasidan tashqariga chiqadi. Ammo bu jarayon yuqoridagi bosqichlar bilan uzviy tutashgan bo'lib, butun tanlov asosida elektron savdolarni tashkil etish samaradorligini tahlil etish uchun shartnoma tuzish jarayonini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Avstraliyada, tovar (ish va xizmat)lar xaridini elektron tarzda tashkil etish infratuzilmasi ishlab chiqilgan bo'lib, keyingi bosqich sifatida shartnomalarni tuzish va uning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishini avtomatlashtirish jarayoni ustida ishlar amalga oshirilmoqda.

Bu bosqichda shartnomalarni va zaruriy hujjatlarni standartlashtirish va unifikatsiyalash talab etiladi. Shuningdek, huquqshunoslarning faolligi, huquqiy hujjatlarda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish va avtomatlashtirish vositalaridan samarali foydalanish talab etiladi. Shartnomalarini ijro etishda materiallarning shaffofligini ta'minlash va albatta, joriy hisobot materiallarini internetda nashr etib borish samarali yo'nalish hisoblanadi.

III bob bo'yicha xulosa

O'zbekistonda shakllantirilayotgan investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolari mexanizmi, investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini xorij tajribasidan farq qiladi.

AQSHda investitsiya loyihalari doirasida tender savdolari quyidagi shakllarda: ochiq savdolar; ikki bosqichli savdolar; muzokorlar olib borish; soddalashtirilgan tartibda ham amalga oshiriladi.

Boshqa mamlakatlar amaliyotida uchramaydigan soddalashtirilgan tartibda amalga oshirish usuli sun'iy ravishda, investitsiya loyihalar doirasida tovar (ish va xizmat)lar xarid hajmini pasaytirish ya'ni kichik qismlarga ajratishdir. Bundan ko'zlangan maqsad milliy ishtirokchilarga hamda kichik biznes sub'yektlariga keng yo'l ochish hisoblanadi.

Yevropa ittifoqida investitsiya loyihalarni amalga oshirishda ijtimoiy himoyaga va loyihaning ekologik jihatlariga katta e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy himoya sohasida ijtimoiy sohaga to'g'ri kelmaydigan tovar (ish va xizmat)lar yetkazib beruvchilarni mol yetkazib beruvchilar ro'yxatidan chiqarish eng muhim xususiyat hisoblansa, ekologiya sohasida investitsiya loyihasi doirasida tender savdolari ekologik talablarni inobatga olgan holda, eng yaxshi taklifni baholash uchun tavsifnomalar berish eng muhim hisoblanadi.

Xalqaro moliya institutlari tomonidan tovar (xizmat)lar xaridi uchun xorijiy mol yetkazib beruvchilar uchun o'rnatilgan maxsus taqiqlar bilan birga, ancha ko'zga ko'rinmaydigan turdagi taqiqlar - boj poshlinalari va tarifli cheklovlar (standartlar, guvohnomalar, litsenziyalar va boshqalar), ayrim hollarda to'g'ridan-to'g'ri taqiqlarning kamayishi Xalqaro moliya institutlarining tender savdolarining tashkil etish tamoyillariga to'liq mos tushadi.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalari doirasida tovar (ish va xizmat)lar tender asosida xaridini tashkil etishning yaqin kelajakdagi asosiy istiqbolli yo'nalishi bu - internet va zamonaviy texnologiyalarga asoslangan elektron xarid hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu magistrlik dissertatsiya ishi mavzusi doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar va o'rganilgan amaliy jihatlariga asoslanib, quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- investitsiya loyihasi bo'yicha tender savdosi loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tender takliflarini baho va sifat jihatdan eng optimalini tanlab olish mexanizmi yoritilgan;

- tender savdolari tovar (ish va xizmat)larni xarid etishning asosiy mexanizmi bo'lib, uni o'tkazish tartibi va shartlari umumiy qabul qilingan xalqaro me'yor va qoidalar bilan tartibga solinmoqda. Ushbu qoidalar yirik xalqaro tashkilotlar, moliyaviy institutlar hamda donorlik agentliklari tomonidan investitsiya loyihasi bo'yicha xarid qilinayotgan tovar (ish va xizmat)lar jarayonida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Qolaversa, tenderlar orqali tovar (ish va xizmat)larni xarid qilish usullari har bir mamlakatning milliy qonunchiligi, soxa me'yorlari va boshqa majburiy, tavsiya etiladigan xujjatlar bilan belgilab berilgan;

- investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarish mexanizmi o'z ichiga investitsiya loyihalari bo'yicha tender hujjatlarini tayyorlash, tender ma'lumotini nashr etish, tender hujjatlarini taqdim etish, tender shartlarini tushuntirish, tender arizalarini yig'ish va ro'yxatdan o'tkazish, konvertlarni ochish va g'olibni aniqlash hamda shartnomalar tuzishgacha bo'lgan uzluksiz jarayonlarni qamrab oladi;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini boshqarishda loyihalarning texnik va boshqa tomonlari mukammal va puxta baholanishi, kelib chiqishi mumkin bo'lgan risklar hisobga olinishi, baholanishi hamda ularni oldini olish yoki pasaytirilishi muhim vazifalar hisoblanadi, bu esa, loyihaning ko'zlangan darajadagi yuqori samarasini hosil qilishga imkon bermoqda;

- investitsiya loyihalarini amalga oshirishda tender savdolarini tashkil etish va boshqarish samaradorligini ta'minlashda eng asosiy va bosh omil loyihaning sifatli, puxta, haqqoniy ishlab chiqilganligi hamda tahlil etilganligi hisoblanadi;

- investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishda, savdolarida ishtirok etuvchi talabgorlarning moliyaviy - iqtisodiy ahvoli va tajribasi, moddiy texnik ta'minotini chuqur tahlil etilib, so'ngra tender savdolariga jalb qilinishi talab etilmoqda;

- investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini g'olibini aniqlashga katta ta'sir etuvchi omillar bu baho va sifat omili bo'lib qolmoqda. Shu sababli investitsiya loyihalari bo'yicha bajarilgan ish va tovarlar sotib olish uchun tender savdolarida asosiy e'tibor baho omiliga qaratilmoqda, xizmatlar ko'rsatish uchun tender savdolarida esa sifat omili birlamchi bo'lib qolmoqda. Ko'rsatilgan xizmatning sifati mutaxassisning malakasi, tajribasi va taklif etilgan vaqtiga bog'liqligi ko'rinmoqda. Xizmat qiymati (bahosi)ning pasayishi, har qanday holatda ham, xizmat ko'rsatish sifatining pasayishiga olib kelmoqda. Shuningdek, xizmatlar ko'rsatish bozori baholarining nisbatan ma'lum darajada barqarorligi mavjud. Shuning uchun ham, savdolarni o'tkazishda, xizmat ko'rsatuvchilar tomonidan taklif etiladigan baholar deyarli bir xil ekanligi kuzatilmoqda. Baholar asosida tanlov g'oliblarini belgilash bo'yicha sa'y-harakatlar natijasi pastligicha qolmoqda;

- investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishda Yevropa ittifoqining tajribasini o'rganish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini savdo predmetiga ko'ra tashkil etish va boshqarishda yagona qonunchilik bazasi yaratilishi, kelajakda tender savdolarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday ziddiyatlarni yagona qonunchilik doirasida hal etilishiga zamin yaratdi;

- investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishda AQSH tajribasini o'rganish jarayonida yirik investitsiya loyihalari doirasida tender savdolarini tashkil etishda loyiha qiymatini kichik qismlarga bo'lish orqali kichik biznes va tadbirkorlik sub'yektlarini tender savdolariga keng jalb qilish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa, tender takliflarini ko'paytirib savdolardan ko'zlanga maqsadlarga erishish imkoniyatini oshiradi;

- rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qilish natijasida investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishga axborot texnologiyalarni qo'llash savdolar samaradorligini oshiradi hamda tender tamoyillariga to'liq amal qilinishini ta'minladi. Investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarining yaxlit yagona ma'lumotlar bazasini shakllanishi bozor iqtisodiyoti sharoitida xarajatlar tejalishiga hamda savdolar samaradorligini tahlil qilish imkoniyatini kengaytirdi.

Ushbu magistrlik dissertatsiya bo'yicha ilmiy izlanishlar va yuqorida keltirilgan xulosalarga asosan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etish jarayonida loyihaga ta'sir ko'rsatuvchi turli xil bozorlarga xos omillarni mukammal darajada o'rganish hamda takomillashtirib borish zarur;

- investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolarini tashkil etishda texnik va texnologik omillar ta'sirini o'rganib chiqish, jumladan, ishlab chiqarishga tadbiq etiladigan texnologiyaning milliy bozor darajasida emas, balki xalqaro bozor miqyosidagi raqobatbardoshligini o'rganish va baholash samarali hisoblanadi;

- investitsiya loyihasi bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarishda avvalo, loyiha mahsuloti uchun zaruriy xom ashyoni qidirayotganda, ishlab chiqarish uzluksizligini ta'minlash uchun asosan mahalliy xom ashyodan foydalanishga sa'y-harakatlarni yo'naltirish kerak. Korxonada kuzatilgan vaziyatni kelib chiqishi urlicha bo'lishi mumkin. Agar xom ashyo ichki bozorda mavjud bo'lsa, bu muammoni hal qilish nisbatan yengil kechadi;

- investitsiya loyihasi bo'yicha tender savdolarini sifatli va tartibli tashkil etilishi yuzasidan doimiy monitoringini tashkil etish maqsadga muvofiqdir;

- mamlaktimizda investitsiya loyihalari bo'yicha xizmatlar ko'rsatish uchun tender savdolarini tashkil etishda me'yoriy-huquqiy bazani yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli bugunga qadar tender savdolari faqatgina shaharlarda yo'lovchi tashishni tashkil etish uchungina amal qilmoqda. Shuning uchun tender savdolarini tashkil etishning huquqiy asosini loyiha qiymatidan kelib chiqqan holda tender savdosini aniq predmeti sifatida puxta ishlab chiqish zarur;

- korrupsiyani oldini olishga qator tadqiqotlar bag'ishlangan hamda dunyo mamlakatlari bo'ylab davlat va nodavlat dasturlari amalga oshirilmoqda, ammo ushbu tadbirlarni amalga oshirish bilan hali sezilarli natijalarga erishilmasdan kelinmoqda. Hususan mamlakatimizda ham korrupsiyani bartaraf etish choralari qo'llash bo'yicha ma'lum kamchiliklar mavjud. Shuning uchun dastlab bu jarayonda tender savdolari ma'lumotlarini ochiq-oydinligini ta'minlab undan so'ng har bir tender savdosi predmeti bo'yicha tender savdolari g'olibini aniqlashning yagona tabaqalashtirilgan ballik tizimini yaratish va uni qonunchilik bazasiga kiritish zarur. Zero har bir ishtirokchi o'zini hamda qolgan ishtirokchilarning patensialini o'zi mustaqil baholay olish muhimdir. Bundan tashqari korrupsiyaga qarshi choralarni qo'llash uchun psixiologik, texnik, tartibga soluvchi jarayonlar hamda jazo chora-tadbirlari kabi chora-usullardan ham keng foydalanish samarali hisoblanadi;

- investitsiya loyihalarini bo'yicha tender savdolari mexanizmi samarali bo'lishi, ko'p jihatdan, tender savdosi g'olibini aniqlayotgan mutaxassislarning kvalifikatsiya darajasi, professional tayyorgarligi hamda holis va haqqoniyligiga bog'liq. Shu sababli tender komissiyalar faoliyatini hamda tender komissiyalar mutaxassislari nazorat qiluvchi muassasa tashkil etilsa loyiha muvaffaqiyati ortgan bo'lar edi;

- xorijiy amaliyotni o'rganish, unda shakllangan standart yondashuvlarni o'z milliy imkoniyatimizga mos ravishda takomillashtirilgan holda amalga oshirish samarali bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish orqali investitsiya loyihalari bo'yicha tender savdolarini tashkil etish va boshqarish orqali iqtisodiyotni yanada kuchli, barqaror va mutanosib rivojlangan holda maydonga chiqishi, jahon bozorlarida o'zining mustahkam o'rnini egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida oldimizda turgan ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun ishonchli zamin yaratadi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2010-yil. 25 b.

1.2. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi: Rasmiy nashr - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - T.: "Adolat", 2016-y. 400 b.

1.3. O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni. 1996-yil 25-aprel.

1.4. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi Qonuni. 1998-yil 30-aprel.

1.5. O'zbekiston Respublikasining "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi Qonuni. 1998-yil 30-aprel.

1.6. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2014-yil 10-dekabr.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni;

1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-sonli "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 6-maydagi PF-3831-sonli "Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmoni.

1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-martdagi PF-4996-sonli "O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.

1.11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli " O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 26-oktabrdagi PF-4853-sonli “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini faollashtirish va kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-sonli “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 6-maydagi “Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi PF-4931-sonli “Urgut”, “G‘ijduvon”, “Qo‘qon” va “Hazorasp” erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag‘batlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

1.17.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 15-apreldagi PQ-2164-sonli “Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish bilan bog‘liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.18.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi “Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o‘zlashtirish jaryonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.19.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrdagi PQ-2454-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

1.20.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 18-noyabrdagi PQ-2069-sonli “2014-yildagi O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi Qarori.

1.21.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 17-noyabrdagi PQ-2264-sonli “2015-yildagi O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi Qarori.

1.22.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-dekabrdagi PQ-2458-sonli “2016-yildagi O‘zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi Qarori.

1.23.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 23-dekabrdagi PQ-2697-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi Investitsiya dasturi to‘g‘risida”gi Qarori.

1.24.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 350-sonli 1998-yil 17-avgustdagi “Shahar yo‘lovchilar transportida ochiq tenderlarni tashkil etish va ularni o‘tkazish masalalari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.25.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-noyabrdagi 456-sonli “Tender savdolari o‘tkazishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.26.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagi 302-sonli “Kapital qurilishda tanlov savdolar tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

1.27.“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 7-iyundagi 110-sonli “Investitsiya loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish va tasdiqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash tartibi haqida”gi Qarori.

1.28.O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 23-oktyabrdagi “Kapital qurilishda ijara va lizing xizmatlari tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi, Qarori.

1.29.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi “Markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalar hisobiga ro‘yobga

chiqarilayotgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o'tish to'g'risida"gi Qarori.

1.30.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 7-iyundagi "Investitsiya loyiha hujjatlarini ishblab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash tartibi haqida"gi 110-sonli Qarori.

1.31.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 14-sentyabrdagi 264-sonli "Tender savdolari o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

1.32.Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2012-yil. 36 b.

1.33.Karimov I.A. Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2013-yil. 63 b.

1.34.Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish - ustuvor vazifamizdir. Toshkent: O'zbekiston. NMIU, 2015-yil. 74 b.

1.35.Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz - mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir". Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2016-yil. 72 b.

1.36.Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 1995-yil. 200 b.

1.37.Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2001-yil. 157 b

1.38.Karimov I.A. "Zamonaviy uy-joy qurilishi - qishloq joylarini kompleks rivojlantirish va qiyofasini o'zgartirish hamda aholi hayotining sifatini yaxshilash

omili” mavzusidagi xalqaro konferentsiyasining ochilish marosimidagi nutqi.
//Xalq so’zi.// 2013-yil 18-aprel №74 (5748)-4b.

1.39.Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini
birgalikda barpo etamiz. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2016-yil. 56 b

1.40. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy
javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent:
“O‘zbekiston” NMIU, 2017-yil. 104 b.

1.41.Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash
– yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU,
2017-yil. 48 b.

1.42.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz
bilan birga quramiz. Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017-yil. 488 b.

1.43.Гончаренко Л. П. Инвестиционный менеджмент. - М.: КНОРУС,
2009 г. 296 с.

1.44.Бочаров В. В.Инвестиции. - СПб: Питер, 2009г. 384 с.

1.45.Бурцева Т. В. Инвестиции. - М.: ИЦ “Академия”, 2009г. 240 с.

1.46.Шабалин А.Н. Инвестиционный анализ. - М.: МФПА, 2004г. 78 с.

1.47.Шевчук Д.А. Организация и финансирование инвестиций. Ростов:
Феникс, 2008г. 272 с.

1.48.Сорокин В. Ю. “Развитие системы международных тендеров в
Российской Федерации” Диссертация на соискание ученой степени кандидат
экономических наук Москва 2012 г. 291 ст.

1.49.Vaxobov A.V., Xojibakiyev Sh.X., Mo’minov N.G. Xorijiy
investitsiyalar. O’quv qo’llanma. - Toshkent: Moliya, 2010-yil. 320 bet.

1.50.Isoqov M.Y. Kapital qurilish iqtisodiyoti. Ma’ruzalar matni. TDIU.
2004 yil. 220 bet.

1.51.Burxonov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. T.-: “Fan va texnologiya”,
2012-yil. 160 bet.

1.52.Qayumov R., Xojimatov R. Investitsiyani tashkil etish va moliya-
lashtirish: Darslik. - T.: TDIU, 2010-yil. 188 b.

1.53. Madumarov H. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish omillari. Bozor pul va kredit jurnali. Toshkent: 2010-y. №5. 25-27 b.

1.54. Mamatov B.S., Xujamqulov D.Y., Nurbekov O.Sh. Investitsiyani tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. - T.: "Iqtisod-Moliya", 2014-y. 608 b.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

2.1. Oblomuradov N.N. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. Toshkent: O'zMU, 2001-yil 24bet.

2.2. Raimjonova M.A. Erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. Toshkent: Extremum-press, 2013-y. 176 b.

2.3. Soliyev A.S., Mirzaaxmedov S.X., Jumaxanov Sh.Z. "Qo'shma korxonalar geografiyasi". Namangan.: Namangan nashriyoti, 2006-y.

2.4. Xaydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - T.: 2003-y. 29 b.

2.5. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. -T.: "Moliya" nashriyoti, 2003-y. 200 b.

2.6. Uzoqov A., Nosirov E., Saidov R., Sultonov M. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD - MOLIYA", 2006-yil. 263 b.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1. O'zbekistonda qurilish. Statistik to'plam. -T.: Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi, 2016-yil. 177 b.

3.2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. "T" harfi "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent. 2006-yil. 600 b.

3.3. Финансово-кредитный словарь. Т. 1. - М.: "Финансы и статистика", 1984г. 470 с.

3.4. Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. “Современный экономический словарь” М: ИНФРА-М. 2006г. 800 с.

3.5. Internet saytlari.

- <http://www.ziyonet.uz> (Axborot ta'lim tarmog'i)
- <http://www.stat.uz> (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi)
- <http://www.cbu.uz> (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki)
- <http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
- <http://www.mfer.uz> (O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi)
- <http://www.mineconomy.uz> (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
- <http://uzex.uz> (O'zbekiston Respublikasi tovar xomashyo birjasi)
- <http://www.tfi.uz> (Toshkent moliya instituti)
- <http://www.tdiu.uz> (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti)
- <http://www.worldbank.org> (Jahon banki)
- <http://www.europe.eu> (Yevropa ittifoqi)